


TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU

# TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU



TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU TEMUR MALIK YOSHLIKDAGI ORZU ASARI

*Temur Malik*

# YOSHLIKDAGI ORZU

Qisqartirilgan variant

*QR-ko'd orqali yozuvchini sotsial tarmoqlarda kuzating:  
Telegram, Instagram, Youtube*



2022 ©

## *San Fransisko.*

||

Nyu-York San-Fransisko reysining bo'rtida nozikkina styuardessa ildam qadamlar bilan uxbab qolgan yo'lovchilarni uyg'otib yurgandi. «Ser» deb Boburni yelkasini yengil tebratdi. «Biz qo'nishga rostlanmoqdamiz. Iltimos havfsizlik kamaringizni taqib oling» - deb ogohlantirib o'tib ketdi u.

Samolyot qo'ndi. Bobur shoshilmay aeroportdan chiqib, ro'parasidagi ketma-ket turgan sariqrang taksilarga qarab yurdi.

- Kechirasiz, buyurtmangiz yo'qmi? Bo'shmisiz? - dedi mashina oynasidan haydovchiga qarab.

Haydovchi:

- Ha, bo'shman! - deb tezdagina Boburning jomadonini mashina yukxonasiga joyladi. Orqa eshikni olib, - Oliyanob insonlar uchun oliy servis, - deya Boburni ichkariga taklif qildi.

- Rahmat - o'rindiqdan joy oldi Bobur.

Haydovchi o'z o'miga qaytib o'tirgach, orqa-tasvir oynasi orqali mijozga termulib manzilni aytishini kutdi. Javobni olib:

- Xo'p bo'ladi, Ser! - deb qo'shiq ham qo'ymasdan bir pas jim ketdi. Har kuni radio eshitib ketish uning jig'ildoniga kelgandi. - Biznes-uchrashuvga keldingizmi, Ser?

- Yo'q. Nimaga bunday taxmin qildingiz?

- Kostyumingiz ko'rinishidan juda qimmat, bir nimalarni o'ylab ketasiz. Odatda bunday kostyum kiygan janoblar bilan suhbatlashsam ular juda muvaffaqiyatli insonlar bo'lib chiqishadi.

Bu solishtiruv Boburning yuzida tabassum uyg'otdi.

- Mening ismim Rakesh, - o'zini tanishtirdi haydovchi.

- Bobur, - qisqa javob qaytardi u, sababi uzoq suhbatlashish kayfiyatida emas edi.

- Juda muhim voqeaga ketayotganga o'xhsaysiz.

- Ha. - yana qisqa javob bo'ldi ammo, Bobur Rakeshning muloqot qilishga samimiyl iltijosini ko'rib o'zi gap boshladidi. - Ismingiz Hindistonliklarinikiga o'xshar ekan? Hindistondanmisiz?

- Ha, Ser, men Hindistonning poytaxtida, Dehli ko'chalarida katta bo'lganman. - ko'zlari chaqnab ketdi. - Hindiston haqida nimalar bilasiz?

- Toj Mahalni bilaman...

- Judaham go'zal inshoot. Uni buyuk ajdodlarimizdan biri - Rakeshni hayoliga bir ism keldi-yu avzosi o'zgardi, orqa tasvir-oynasiga qarab, - Esim qursin, - o'z peshonasiga yengil urdi, - Ismingizni eshitibla hayolimga Toj Mahal kelmaganini qarang. Ming bor uzur, Ser. Men hozir o'zimdan uyalib ketdim. AQSHda ko'p yashashning oqibati shu-da.

U o'z ona tilida bir narsalar deb kallasini chayqab ketardi. Gapirish ohangidan o'zini o'zi so'kmoqda edi. Bir ozdan so'ng hovuridan tushib jim ketdi. Bobur Rakeshning parishon ko'nglini ko'tarish maqsadida:

– Bu holat menga ham tanish. - deb qo‘ydi. – Qachon ohirga martta Hindistonda bo‘lgandiz?

- Ikki yil oldin. - dedi mayuz.
- Dehli ko‘chalarini sog‘inasizmi?

Bu savol Rakeshning yuragiga nashtardek urildi. U ho‘rsinib ichidagini so‘ylay boshladi. Rakeshning grin karta yutib AQSHga kelganiga sakkiz yildan oshgan. Olti yil deganda fuqarolik oladi. Intizorlik bilan kutgan kun keladi. U uyiga uchadi. Ilk kunlardanoq o‘zini uyidagidek his qila olmaydi. Shahar ko‘chalari o‘zgargan. Avval to‘s-topalon bo‘lgan bozorni o‘rnida endi baland imoratlar qad ko‘targan. Do‘s’t og‘aynilari bilan gapi qovushmaydi. Odamlar ham o‘zgargan.

– ...Hillas, yangi Dehli bilan chiqisholmadim, uni qabul qilolmadim, - Rakesh yo‘lning o‘rtasida tezlikni oshirmay haydab ketardi. – Bilasizmi, o‘shanda bir g‘alati hissiyot dilimdan o‘tdi. Men o‘z tug‘ilib o‘sgan vatanimda o‘zimni ilk bor begonadek his qildim. Nima qilishni bilmay yana AQShga bilet oldim. Kelgach boshqa narsa yuragimni qiynadi. Ona vatanni tashlab ketvorganim menga qandaydur zalolatdek tuyildi. Bir narsaga hiyonat qilib qo‘ygandek. Lekin nima o‘sha narsa? Birovni aldamagan bo‘lsam. Oilamni ham olib kelgan bo‘lsam. Nega hamon aybdorlik tuyg‘usi tark etmaydi? Yaxshi hayotga intilganimda aybdormanmi? O‘zi kimni oldida aybdorman?

U agarda Hindistonda ham AQShdagidek pul topaolganida vataniga qaytib ketishini gapirardi, bir zumdan so‘ng esa qaytgani bilan u yerda yashashga boshqa ko‘nikolmasligidan nolirdi. Bobur uning ayrim gaplariga o‘ylanib bir unga bir oynaga qarab ketardi. Rakeshning iqrori to manzilga yetmaguncha tugamadi.

– Siz bilan birozgina suxbatlashgan bo‘lsak ham o‘zimni huddi Hindistonda, uyimdagidek his qildim. Raxmat sizga Ser. - dedi Rakesh jomadonni yerga tushirib.

- Sizga raxmat! - pulni uzatdi Bobur.

Choychaqani ko‘p olganidan hursand bo‘lgan haydovchi mashinaga o‘tirishga shaylandiyu, Boburga qarab:

– Ser, agar San-Frantsiskoda yana bir necha kun qolsangiz, iltimos menga qo‘ng‘iroq qiling. Sizni hind restoraniga taklif qilaman.

Bobur jilmayib kelishdik dedi-da, jamadonini ushlag‘ichini chiqarib mehmonhonaga qarab yurdi. Kirishi bilan resepshndagi qiz yoshroq yuk tashuvchi yigitga ko‘zlarini yogurtirib ishora berdi. U shippillab borib Boburni yukini oldi.

- Mehmonhonamizga hush kelibsiz mister...

AQShdagagi odad bo‘yicha rasmiy joylarda kimda-kim sizga «mister» ya‘ni janob yoki «miss, missis» - xonim deb murojaat qilib bir oz tikilib tursa, bu ismingiz yoki familiyangizni bilmayman va bilishni xoxlayman degan ma‘noni bildiradi. Bobur o‘zini tanishtirdi. Qiz tezdagina ma‘lumotni bazasiga kiritib, g‘aladondan plastik karta ko‘rinishidagi «kalitni» olib uzatdi.

Xonaga ko‘tarilgach yuk-tashuvchi yigit vazifasini bajarib bo‘lib eshik ostonasida Boburga tik qarab turgandi. Bu AQSHning mehmonhona etiketi. Har bir bu kabi ko‘rsatilgan hizmatga choychaqa berilishi lozim. Albatta choychaqa berish-bermaslik ixtiyoriy, ammo bu kabi martabali mehmonhonalarda bu odatga ko‘z yumish noqlay.

Bobur eshikni yopgach pardalar o‘zi ikki yon yurishni boshladi. U oyna yoniga yaqinlashgan sari tungi shaharning manzarasi yanada kengroq ochilardi. Pastdan

avtomobilarning signal dovushlari yetib keladi, cheksiz chiroqlar bepoyon qorong'ulikni mayda uchqunlari bilan yoritadi. Qachonlardur bu chiroqlar, bu olovlar Boburning yuragini lovullab yoritgan, ular so'nmas umidlar ramzi edi. Biroq hozir bu shamchiroqlar issiqlik ham chiqarmas. Buning hammasiga sabab bir savol. Ohirgi umid cho'g'ini so'ndirib qo'yay deb turgan savol...

O'sha kuni u tush ko'rди. Bolaligi haqida.

– Buvijon, qarang men nima yasadim! – bolakay qo'lidagi parrakni oldida tutib xursandchilik bilan ko'chadan yugurib kirdi.

– Tez yugurma bolam, yiqilib tushmagin tag'in. – nabirasini ogohlantirdi tandirda non yopayotgan onaxon.

– Buvijon, buni qarang! – tinmasdi bolakay. U shoshganidan, yo'lakchadan tomorqa ichiga sakrab, bugungina ekilgan pomidor ko'chatlarini kechib ketdi. Marraga ozgina qolganida qoqilib tushdi.

– Voy bolaginam-a. - dedi onaxon bir o'girilib qo'yib va tezroq qo'lqopini yechib nabirasi tomon intildi.

Bolakay o'midan sakrab turib, shilingan tizzalariga e'tibor bermay yana buvisiga yugurdi.

– Buvijon qarang, qarang...

– Qarayapman bolajonim, qarayapman. - onaxon bolakayning tizzalaridan tuproqni qoqdi. – Kim yasab berdi buni? – so'radi parrakni olib.

– O'zim yasadim! – dedi beg'ubor tabassum bilan.

– Voy, o'zim sendan o'rgilay! – deb boshini siladi. – O'ynayverib qorning ham ochgandir-a?

Onaxon tandirdan bitta kulcha uzib, uni yarimini durraga o'radi. So'ng tandirning yonida turgan chinnidagi saryog'dan kulchani ichiga surtib berdi. Buvijonisi qanday qaynoq kulchani qo'lqopsiz ushlayotganini ko'rib turgan bolakay:

– Buvijon, qo'lingiz og'rimayaptimi?

– Ex... Keksalikka yetguncha boshingdan bir dunyo g'am-tashvishni kechirganidan keyin, bunday og'riqlar sezilmay ketarkan, bolam. - deb kulchani uzatdi, – Olaqol!

Bolakay nonni puflab bir chimdim tishlaydi-da, vujudi yangi kuchga to'lib «ur-re» deya parragini yana oldida tutib qo'rg'onnei aylanadi...

# Bolalik

||

Boburning bolaligi ko'proq qishloqda o'tgan. Buvijonisi, Sadoqat aya, hovlidagi so'rida doim nimalarnidir to'qib o'tirardi. Qolaversa, ushbu nuqtadan nabirasining barcha harakatlarini to'liq kuzatib turish imkonibor. Bolakay, umuman, bir joyda o'tirmasdi. Buvisi kashta tikish bilan ovora bo'lib qolib, birozdan so'ng qarasa, u yo qo'llarini loy qilgan, yo ustini kir qilgan. Ba'zida Sadoqat aya biroz mizg'ib olay deb yotganda, bola yig'isidan uyg'onib ketardi. Shunda «Voy bolamey, ehtiyyotroq bo'lmaysanmi» deb, Boburning shilingan joylarini yuvib, uni yupatar edi. So'ng bolakay nam ko'zlari bilan «Xo'ppa-Xo'ppa» deb buvijonisidan uni ko'tarishini iltijo qilardi. Mehribon Buvijonisi esa beli og'rishiga qaramay nabirasini ko'tarib mahalla-ko'yga sayrga chiqardi. Ulami ko'rgan qo'ni-qo'shnilar «Voy, Sadoqat opa, nabirangiz biram shirinda» deya bolakayni erkalab, uni yonoqidan chimdib qoy'ishar edi.

Sadoqat ayaning ikki farzandi bor: Kichigi qiz, Boburning onasi, Maloxatxon, Kattasi o'g'il, Karim. Karimjon o'z mahallasidagi Zumradxonga uylangan va tug'ilgan farzandiga Yodgor deb otasining ismini bergen.

Yodgor maktabni bitirganidan keyin ta'limni davom ettirishga qiziqmagan. Kimki undan «O'qishga topshirmaysanmi?» deb so'rasha, «O'qib nima qilaman, undan ko'ra bir hunar o'rganganim yaxshi» deb javob berardi. U bir to'da qo'ylarini dalaga haydab chiqib ketayotganda, Buvisining «Jiyaningni ham bir aylantirib kel, bolam» degan gapi bilan safarga Boburni ham ovolardi. Bolakay ham Yodgor akasi yaylovga chiqib ketayotganini ko'rib qolsa, unga ergashishni odat tusi qilib olgan. U yerda Bobur tengi bolalar yo'q edi, shuning uchun u chekkaroqqa kichkina to'shakchani o'tni ustiga yozib, Yodgorning o'rtoqlari bilan futbol o'ynashini kuzatib o'tirardi. Agarda koptok Bobur tomon dumalab kelib qolsa, u yugurib borib bitta zarba bilan koptokni yana maydonga qaytarardi. Yodgorning og'aynilari «Futbolchi bo'ladi-yov, shu ukang» deb hazillashib qo'yishardi.

\*\*\*

Sadoqat aya so'rida Boburga qog'ozdan samolyot yasashni o'rgatib o'tirgandi.

– Ana, tayyor, - dedi onaxon samolyotning ikkinchi qanotini bukib. – Uchirib ko'rchi, - deya yasamani nabirasiga uzatdi. Bobur qo'lini keng orqaga cho'zib turib bor kuchi bilan «Ur-re» deya oldinga tashladi. Samolyot ko'chaga shaylangan Yodgor o'yog'i ostiga qo'ndi. Yodgor «Ur-re» deb uni orqaga qaytardi.

– Buvi, dalaga ketdim.  
– Men ham boraman! - dedi Bobur.  
– Nima qilasan, bolam? - homush ohangda gapirdi Sadoqat aya, – Tinchgina uyda qolaqolgin.

– Samolyotimni uchiraman, - u so'ridan tushib oyoq kiyimini kiyguncha, Sadoqat aya Yodgor qarshi bo'lmasmikin deb darvoza tarafga bir qaraydi. Yodgor buvisini ranjitkisi kelmasdan Boburga «Bopti, yur tezroq» deb ko'chaga chiqib ketadi.

Dalaga kelgach, Yodgor jiyaniga «Uzoqqa ketib qolmagan» deb tayinlab, o'zi do'stlari bilan koptok tepgani yuguradi. Bolakay javoban kallasini likillatadi va samolyotini uchirish bilan ovora bo'lib ketadi. Besh qadam yurib samolyotini uchiradi, o'n qadam yurib yana takrorlaydi ammo baland parvozga erisholmaydi. Bobur nariroqdagi tepalikka chiqib, o'sha yerdan uchirib ko'radi. Samolyot sal uzoqroqqa uchadi. Bu natija ham uni qoniqtirmay yanada teparoq joyni qidirishga chorlaydi. Qirning ustiga bir amallab chiqib samolyotini uchiradi va uzoq parvozni kuzatadi. Buni yana takrorlash maqsadida bolakay pastga tushgan samolyotini topib, yana qirga chiqadi. Qayta va qayta shu tariqa samolyot uchirishni mashq qilaveradi. Navbatdagi parvozni amalga oshirishdan oldin u atrofga bir nazar solib kun botishni boshlaganini anglaydi. Bolakay o'yin bilan ovora bo'lib, qayerga kelib qolganini bilmay qolgandi. Chexrasida homushlik paydo bo'lgan Bobur samolyotini so'nggi marta uchirganida yengil shamol samolyot yo'nalishini biroz o'zgartiradi, u qamishlar to'la ariqning ichiga qo'nib g'oyib bo'ladi.

Bobur samolyotining taxminan qo'ngan joyiga keldi. Baland qamishlar o'sgan ariqning tagi loy edi. Ehtiyotkorlik bilan bir qo'lini oldinga cho'zib, eng yaqin turgan qamishni ushslashga harakat qildi. O'ljani qo'lga kiritishiga sal qolganda o'yog'i qirg'oqdan sirpanib loyga botdi.

Yodgor bu payt do'stlari bilan bearmon koptok tepayotgan bo'ladi. Faqatgina darvozaga zarba urganida, xursandchilikdan maydonda yugura boshlaganda uydan yolg'iz chiqmaganligini eslaydi. Atrofni bir ko'zdan kechiradi. Bobur ko'rinnmaydi. Tomoshabin do'stlaridan «Jiyanimni ko'rishmadingmi?» deb so'raydi. Ulardan biri uzoqqa ishora qilib «Ho' qirda kimdir yurgandi» deydi. Yodgor qirga chiqqunicha shom tushib bo'ladi. Yana birozdan so'ng esa, butunlay qorong'u tushsa, hech kimni topib bo'lmaydi. «Qayerga ketib qoldi ekan-a?» degan savol hayolidan ketmaydi. Birdan, qirning qo'ynidagi qamishlar tebranganiga ko'zi tushadi. «Yog'-e, u yerga bormagandir. Bir yil oldin u joyda katta ilonni ko'rganimizdan keyin u qamishlarga hech kim yaqinlashmay qo'ygan. Buni butun qishloq biladi-ku. Faqat... Boburchi... U bu voqeadan bexabarmidi?!». Yodgorning ko'zlarini katta ochilib ketadi. Yuguradi. Bor kuchi bilan qamishlar tomon yuguradi.

Yaqinlashgani sari rostdan ham u-bu kim borligida ishonch komil qilish uchun «Bobur» deb baqirdi. Nimanidir ovozi eshitildi. U yerda kimdir borligiga amin bo'ldi-yu, ovoz tiniq eshitilmagani sababli, u odamnikiligiga shubxalandi. Yetib kelgach ariqni qirg'oqidagi quruqlikka sakradi. Qamishlarni yiqitib, ulardan o'ziga yurgani y'ol qildi. Shoshilmay havfli muhidga kirishni boshladi. Unchalik ichiga kirishga ulgurmay ilonning «Psss» degan ovozi eshitildi. Kallasini harakatlantirmay ko'zlarini pastga tushurdi. Bir uzunchoq, o'ta nozik narsa ko'rini yana orqaga kirib ketdi. “Naxotki bu ilonning tili bo'lsa?!” ko'zlariga ishonmay turgandi Yodgor. Uning taxminidagi til yana bir bor ko'rini, bu gal uning boldirini silab qo'ydi. Yodgor bir yutindi. Noaniqlik uning yuragini titratardi. Qo'rquvini bosib, “Endi orqaga yo'l yo'q. Nima bo'lsa bo'ldi” deya qarshisidagi qamishlarni tezda ikki yonga surib ochdi.

Bobur bir joyda uzoq turganidan botqoqqa tizza bo‘yi cho‘kib ketgandi. Quruqlikka chiqish urinislari uni yanada chuqurga tortib ketayotganini sezib hakatlarini to‘xtatgan. Qamishdan bir shoxcha sindirib, uni qilich kabi ushlab o‘zini himoya qilishga tayyor turgan paytda, to‘g‘risiga baqa sakrab tushdi. Uning ermaklagandaqa “va-aq” deyishi bolakayning jig‘iga tegdi. Bobur achchig‘idan “fu-ush” deya uni qilichi bilan sanchishga urindi. Baqa orqaroq qochib zarbadan qutqarildi. Bobur yana bir bor uni ta‘zirini berishga uringanda, baqa yanada orqaga sakrab qamishlarning orasiga berkinib o‘ldi. Bobur raqibini yengiganidan hursand bo‘lishga ulgurmasdan turib bir narsa yerga gursillab sakrab tushgani eshitildi. U sekin harakatlanib bolakay tomon yaqinlashardi. Bobur uni ko‘rmasa ham, o‘ziga yaqinlashtirmaslik uchun yana “fu-ush” deya qilichini qamishlar orasiga sanchirdi. Oyning soyasida baland dev gavdalandi. Bobur qilichini baland ko‘tarib dushmani qarshi olishga tayyorlandi va mahluq qamishlar ortidan chiqishi bilanoq unga zarba berdi:

– AaAAa! – deya baqirib, ko‘zlarini yumib olgan bolakay devni bor kuchi bilan kaltaklashni boshladi. – Sheriklaringni chaqirib keldingmi, yaramas! AaAAa! Mana, mana! – urishdan to‘xtamasdi.

– Bobur, bu men Yodgor akengman. – bolakayni tinchlashtirishga urinaman deb peshonasiga qamishdan bir zarba qabul qildi. – To‘xta! – baqirdi u va achishishni boshlagan peshonasini siladi.

Bolakay ham uni tanigandan so‘ng tinchlandi.

– Botib qoldim, – yig‘lamsiradi u.

– Nimaga bunchalik uzoqqa ketib qolding? – urushdi Yodgor akasi. Bobur indamadi.

Uning ko‘zyoshlarini ko‘rgan Yodgor “Uyga ketamizmi?” dedi. Bolakay labini bujmaytirib kallasini irg‘ab «Ha» javobini berdi.

– Qani qo‘lingni berchi, – dedi Yodgor va Boburni loydan chiqarishga harakat qilib, qo‘lidan ushlab o‘ziga tortishiga bolakayning rangi negadir o‘zgarib, yordam qo‘lini qo‘yib yuborib o‘zini orqaga tashladi.

«Chaqdi» - o‘yladi ichida Yodgor. «Ana xolos. Endi buvimga nima deyman? Ammamga-chi?». Nima qilarini bilmay past tovush bilan so‘radi:

– Nima bo‘ldi?

– O‘yog‘imni chiqarganim sari shippagim yechilib, loyning ichida qolib ketyapti.

Yodgor asabiy ohangda:

– E, shippagingni seni. O‘lgidek qo‘rqitib yubording-ku odamni!- yodgor engashib Boburni qo‘ltig‘idan ushlab bir ko‘tarishda uni ariqdan sug‘urib oldi. – Bo‘ldi, yur ketdik, – dedi Yodgor Boburning qo‘lidan yetaklab, bolakay esa oldinga qadam bosib botqoqda qolib ketgan shippagiga o‘girilib qo‘yardi.

Uyga kelishgach, Yodgor kattalardan gap eshitmaslik uchun Boburni tezdagina suvda oyoqlarini yuvdirdi. Shu payt buvisi ayvondan:

– Hoy, namuncha kech qolib ketdinglar?

– Ha anaqa, – gap kelmay bir oz to‘xtab qoldi Yodgor, – Bobur ishtonini ho‘l qilib qo‘yipti.

- Unaqamas! – e‘tiroz bildirdi bolakay!

- Bo'l-bo'l, - deb shoshiltirdi Yodgor, - bo'lmamasam ketib qolganingni aytib beraman.

Bolakay unga ko'zini qisib indamay qoldi.

Sadoqat aya so'riga chiqib dastuxonni yozguncha kelini Zumradxon oshni suzib keltirdi. Bolalar choy-poy olib kelishga yordamlashishdi. Karim aka esa ayni vaqtini poylab turgandek, yelkasida tarvuz ko'tarib kirib keldi. Uni ko'rgan Bobur «ur-re, tarvuz keldi» deb tog'asini qarshi oldi. «Ovqatdan keyin yeymiz» dedi Karim aka bolakayning boshini silab.

- Boburjon, bolam ertaga yeya qol, bo'lmamasam yana ishtoningni ho'l qilib qo'yasan. - dedi buvisi.
- Unaqamas! Yodgor akam aldayapti! - deb unga kulimsirab qarab turgan Yodgorga tilini chiqardi.

Dasturxon atrofida hamma to'planib Sadoqat aya tamaddini boshlab berdi. Kattalar pishillab turgan radiordan mumtoz navo'lar tovushiga gaplashib, kichkinalar esa tarvuzga qachon navbat kelishini kutib o'tirishardi...

Bu kun, bu davra Boburning yodida eng baxtli onlardan biri bo'lib qolgandi, lekin u o'sha damlarda buning qiymatini tushunmasdi. Buni hech kim tushunmas ekan. Faqatgina yillar o'tib bu narsalarning qadri bilinar va ortar ekan.

## *San Fransisko.*

### II

Soat bongidan oldin turishga odatlangan Boburni uzoq parvoz charchatib yubordimi yoki soat moyasi almashgani ta'sir qildimi, telefoni jiringlayotganida u hamon uyquda edi. Shoshmay musiqani o'chirdi. U shiftga termulib yotardi. Agarda bu dam olish kuni bo'lganida uyquni buzishga hojat yo'q edi, lekin bugun juda muhim kun.

Oyna oldida galstuk bilan va usiz ko'rinishini solishtirib bir vaqtning o'zida bugungi nutqini takrorlardi:

– Dunyo jadal rivojlanib, - dimog'ini tozaladi. – Bugungi kunda Informatsion Texnologiyalar kundalik hayotimizning barcha sohalariga kirib ulgurdi...

Yana biroz mashq qilgach ohiri tanlovi kapalaknusxa galstukda to'xtadi.

San Fransisko - okean qo'ynidagi quyoshli shahar. Qo'shiqchi, Skott Makkenzining kuylagan «Agarda siz San Fransisko'ga boradigan bo'lsangiz sochlaringizga gullardan gulchambar yasab taqib olishni unutmang» degan so'zlari shaharning norasmiy gimni hisoblanadi. Toshli changalzor deb atalmish Nyu-Yorkdan so'ng tong sahardagi jimjitlik, qushlar sayrashi, ko'klam, o'simlik ko'pligi, daraxtlarni yam-yashilligi ko'tarinki kayfiyatni uyg'otardi. Bobur a'lo kayfiyatda ko'rgazmaga yetib keldi.

Futbol stadioni bilan teng keladigan inshootda innovatsion texnologiyalar va startaplar ko'rgazmasi o'tkazilmoqda. Qatnashuvchilar safida butun dunyodan yuzlab injenerlar, dasturchilar, IT(Informatsion Texnologiyalar) bilan bog'langan katta korxonalarining top-menedjerlari, robot yasash yo'nalishidagi mutaxassislar to'plangan. Boburni kiraverishda muloyim bir qiz to'xtatib uning chiptasini tekshirishi kerakligini bildirdi, so'ngra ro'yxatdan o'tayotganda belgilangan sohasining pavilioniga yo'nalishni ko'rsatib berdi. Ichkarida olomon, gav-jum, huddi butun shahar haloyig'i bugun ko'rgazmaga yopirilib kelgan. Ilk qadamlaridan yorqin stend e'tiborini tortib ko'rgazma bilan tanishuvni shundan boshlashga qaror qildi.

Yaqinroq borib odamlardan hosil bo'lgan devorga duch keldi. Bir amallab uning ortida nima bo'layotganiga qarasa, sahnada bir yigit ko'zoynaksimon, ikkala shisha o'rni plastikdan bo'lgan buyumni taqib, monito'r ro'parasida o'tirgan ekan. Butun holda qurilmaning tashqi ko'rinishi avtomobilni eslatar edi, faqat bitta farq bilan – haydovchi ro'parasidagi oyna o'mida keng va aylana yoyi shaklida egilgan monito'r joylashgan. Tomoshabinlarmi bu texnologiya qiziqtirganligini sezib, uning ishslash prinsiplari haqida savollar tug'ilishini payqab turgan g'oya asoschisi oldinroqqa chiqib qurilmasining namoyishini boshladи:

– Xush kelibsizlar! Mening ismim Stiven. Sizlarni ko'rgazmamizda ko'rganimdan bag'oyatda mammunman!

Stiven ko'rinishidan ko'p odamlar oldida tez-tez namoyishlarga chiqib turadigan va gapga usta bolaga o'xshamasdi. Bu yerga kelgan namoyishchilarning aksariyati tortinchoq, umrida ilk bora omma oldida gapireshayotgani harakatlari va o'zini tutishidan sezilib turardi. Ularning kelajagi bugungi taqdimotga bog'liq. Agar u muvaffaqiyatli o'tsa, investorlar g'oyaga pul tikishadi, agar teskarisi bo'lsa, Stiven kabi dasturchilar va boshqa ixtirochilar bir yildan keyin yana shu yerga qaytib kelishib omadini takroran sinab ko'rishadi, agar ungacha ularning g'oyalari eskirgan yoki boshqa u-bu kim amalga oshirib bo'lmagan bo'lsa, albatta. Stiven chiroyli gapireshni uddalay olmasa ham, ko'p odam oldida o'zini ishonchli tutishni bilmasa ham, u qo'lidan kelgancha harakat qilib yorug' kelajagi uchun berilgan imkoniyatdan foydalanib qolishi uchun kurashishi kerak edi.

– Aminmanki, barchangiz bu buyumni bilasiz. Bu Virtual Reallik ko'zoynaklari – taqing va Virtual dunyoga sayr qiling! Ushbu texnologiya kundan-kunga ommalashib bormoqda va bugun VR ko'zoynaklarining narxi hamyonbop bo'lib bo'ldi. Agar VR ko'zoynak 3D tasvirini bersa, 4D texnologiyada Virtual Dunyoning ichida jismoniy hissiyotlarni ham his qilishingiz mumkin bo'ladi. Aynan shu yo'nalishda bir necha oylar mobaynida ter to'kib ishladik. Oldindan aytib o'tishim lozim-ki, ushbu qurilmadan foydalanishdan asosiy maqsad – o'zin! Demak, - qo'li bilan qurilma jismlarini ko'rsatishga o'tdi, – o'rindiq, monito'r va vaziyatga qarab foydalanadigan rul temir polga qotirilgan, uni esa «robot qo'l» ushlab turadi. Monito'rni olib tashlasa ham bo'laveradi, chunki unga faqatgina ko'zoynak ichidagi tasvir nusxasi uzatiladi, xolos. Tasvirning yana bir nusxasi sizlar kuzatishingiz uchun mana bu monito'rga ham, - dedi yonidagi katta televizorga ishora qilib. Ko'rib turganingizdek hozir tanlangan o'zin «Amazonka daryosida sayohat», - shu payt o'rindiqda VR ko'zoynaklarni taqib,

tomoshabinlarning ichidan uskunani sinab ko'rish uchun ixtiyoriy ravishda istak bildirgan bolaga - Aleksga, murojaat qildi:

- Aleks, ehtiyyot bo'ling! Hozir qush uchadi! – ogohlantirdi Stiven.
- Qani? Qayerda? – cho'chidi Aleks.

U hozirda Amazonka daryosida qayiqda suzayotgan edi. Bir zumdan so'ng uzoqda qush ko'riniq yaqinlashishni boshladi. U vahimaga tushib engashgan Aleksning ustidan uchib o'tib ketdi. Muxlislar Aleksning haqiqatda yo'q narsadan qo'rqqaniga kulib yuborishdi.

– Shunaqasi ham bo'lib turadi. Interaktiv va kutilmagan harakatlar - namoyishga qaytdi stiven, – foydalanuvchini virtual dunyoga yanada chuqurroq cho'mdiradi. Barchangiz ko'rib turganingizdek, – dedi balandroq ovozda chekarraqda qolgan muhlislarga bir ko'z yogurtirib, – VR ko'zoynakni taqqanimizda biz virtual dunyoga tushamiz. Bu xuddi ertakdek. Xohlang Afrika safariga boring, xohlang Alp tog'larida chang'i uching, xohlang Venetsiyada dayving bilan shug'ullaning, virtual dunyoda mashg'ulotlar turi cheksiz.

– Endi texnik ko'rsatkichlarga o'tsak. Ko'zoynaklarning og'irligi 300 gramm. Akkamulyatordan ishslash vaqtি 3 soat. Aloqa WiFi yoki Bluetooth orqali o'matiladi. Boshqaruv markazi esa mana bu qutisimon matoh, – dedi va yana bir nechta ma'lumotlarni aytib o'tdi. Pastroqqa qarasangiz butun qurilmani ko'tarib turgan robotning qo'liga o'xshagan ushlagich moslamani ko'rasiz. Buning vazifasi nima? Iltimos, e'tiboringizni ekranga qarating. Aleksning yelkasiga qo'lini qo'yib:

- Qo'rwmang, men shu yerdaman, - dedi.
- Nima? Tushunmayapman?! - dovdirardi u.

Orqaga o'girilib, baland suv to'lqini yaqinlashayotganini ko'rib yana vahimaga tushdi. Aleks yelkasidagi qo'lni mahkam ushlab, nimani kutishni bilmay qotib qoldi. Birdaniga o'rindig'i zilzilaga o'xshab qimirlay boshladi. Bu kabi siljishni ilgari ham bir marotaba sezgan edi, biroq uncha e'tibor bermagani sabab nima bo'lganini anglamagandi. Suv qayiqning bir o'ng tomonidan, bir chap tomonidan urar, butun o'rindiqni ko'tarib turgan robot qo'li uni o'ngdan-chapga, oldi-orqaga munkitib harakatlarini takrorlardi. Nihoyat, o'n daqiqalik Amazonkadagi sayr o'z yakuniga yetdi, qayiq sohilga kelib to'xtadi. Aleks ko'zoynakni yechib, boshini bir chayqab, o'rmini boshqasiga bo'shatdi.

Yangi kapitan o'rindiqqa o'tirgach, boshqa o'yinni sinab ko'rish istagini bildirdi. Uning istagi inobatga olingen holda Amazonkadagi sayr avtomobil poygasiga almashdi. Endilikda butun qurilma oldingidan tez harakatlanishni boshladi. Ayniqsa, avtomobil yo'lning o'nqir-cho'nqir joylarida silkinib, balandliklardan uchib o'tib yerga tushganda, yer qimirlashi juda ta'sirlantirar edi.

Ayrimlar virtual poygani kuzatishda davom etdi, qolganlari esa boshqa ko'rgazmaga qarab yurishdi, Bobur ham ular qatori.

Navbatdagi ko'rgazma kvartira ko'rinishida jihozzangan ekan.

– ...asrda Tomas Edison elektr lampochkani ixtiro qilganidan buyon elektr mobaynida ishlaydigan texnikaga qiziqish uyg'onib, uning ishlab chiqarish sanoati jadal rivojlanishni boshlagan. 21-asrga kelib uy bekalariga ro'zg'or tutish ancha osonlashdi: changyutguch, dazmol, suv isitgich, ovqat pishirish uskunalari. Ammo, bularning

barchasi odam ishtirokini talab qiladi. Bugungi zamonning odamining kun tartibi shunaqaki, u ertalab ishga ketadi va shu bilan tunda uyga qaytadi. Charchagan, uyga hordiq istagida kelgan odam uchun uyni tozalash eng yoqimsiz ish bo'lsa kerak. «Aqlly uy» loyihasi sizning uy ishlaridagi qatnashishuvningizni minimal darajagacha kamaytirib kundalik hayotningizni osonlashtirishga mo'ljallangan. Dastlabki uy yumushlaridagi yordamchimiz - avtomatik changyutgich «ChangYut 3000», - deb, qutini ichidan lagansimon oq qurilmani olib yerga qo'ydi.

– Statistikaga ko'ra changyutgich yordamida 1 xonani tozalash taxminan 10 daqiqa vaqt oladi, bundan kelib chiqadiki uyning barcha xonalarini tozalashga bir soat atrofida vaqt ketar ekan. G'ildiraklar bilan jihozlangan changyutgich uyingizning pollarini ozodaligini o'zi nazorat qiladi. Hozir o'zlaringiz buning guvohi bo'lasizlar. – Deya qurilmaning tepasidagi tugmachasini bosdi. Tomoshabinlarning qarsaklari ostida namoyish davom etdi.

ChangYut 3000 atrof-muhitni to'rt tarafidan joylashgan kameralar yordamida analiz qilib, bir metr uzoqlikdagi yerga sepib qo'yilgan tuproqning oldiga bordi, ikkita yordamchi supurgi «qo'llar» aylanib, tuproqni o'z ichiga supurishga yordam berdi.

– Ertalabda ishga yoki o'qishga shoshilayotib polga biron-nima bexosdan to'kib yubordingizmi? Hech qisi yo'q, - deya polga yarim stakan suv to'kdi.

Hayron qolgan tamoshabinlar nigohida robot polni yaltillatib yuvib qo'ydi.

– Sen bugun juda ko'p ishlading. Ozgina mizg'ib ol. - Deb, smartfonidagi tugmachani bosishi bilan kichkina yordamchi elektr quvvatini to'ldirish shoxobchasiga borib unga ulandi. – Ko'rib turganingizdek, akkamulyator quvvati haqida qayg'urishingizga ham hojat yo'q. Faqatgina changyutgichning axlat qopini o'z vaqtida almashtirib tursangiz kifoya! Uyning ozodalik masalasiga yechim topdik, endi uning havfsizligiga o'tsak: «Ko'z 360» nomli kuzatuv kamerasi va «NetQulf» qo'riqlash tizimi, - e'tibor boshqa matohlarga o'tdi.

– Burchaklarga o'matilgan kamera, - to'nnkarilgan holda shiftga qotirilgan chinni shaklida qora buyumga ishora qildi, – harakatni aniqlovchi sensorlari yordamida kuzatuvidagi mayda siljishni ko'rgan zahoti sizning smartfoningizga ogohlantirish yuboradi va siz to'g'ridan-to'g'ri jonli efirda ulansangiz mumkin bo'ladi.

Robert oldinroqqa chiqib:

– Aziz tamoshabinlar, bir-ikkita robot bilan sizlarni takdimotimizga sizlarni jalb qilib qiziqishingizni tushurmagan holda, keyingi texnologiyalarning namoyishini kundalik hayotmizda har birimiz duch keladigan vaziyatni birgalikda tasavvur qilgan holda taqdim qilishimni taklif qilaman, - dedida eshikka qarab yurdi. – Men ishdan keldim. - joyida turib qadam bosib yurayotgan odamni o'xshatdi. – Cho'ntagimdagи smartfonim aqli uy ekotizimiga ulanib bo'ldi shu sababli, ichkariga kirish uchun shunchaki «NetQulf» moslamasiga barmoq izimni tasdiqlasam bo'lgani. Faqat undan avval biz taqdim qilayotgan aqli uy ekotizimining eng aqldan ozdiradigan fazilatini aytib o'tishim lozim. Aqqli uyning o'zining «uy bekasi» bor va u siz bilan muloqot qila oladi.

Odatiy temir kalit o'midagi barmoq izi skaneriga bosh barmog'ini bosishi bilan nozik «tit» degan ovozdan so'ng eshik ochildi. Ommani sir bosgan.

– Hush kelibsan, Robert! - kolonkalardan muloyim ayol ovozi tarqaldi. U odamnikidan deyarli farqi yo'q edi. – Kuning qanday o'tdi?

- Hey Ari! Chakki emas. Kun davomida ko'rgazmada oyoqda turib charchadim.
  - Asabni tinchlantiradigan yoqimli musiqa qo'yib beraman.
  - Klassik ohanglarni tinglab tamoshabinlar aql bovar qilmaydigan suhbatni kuzatishmoqda edi.
    - Hey Ari! Vanna qabul qilmoqchiman.
    - Suv haroratini doimgidek belgiladim.
  - Hammomdag'i vanna suvg'a to'la boshladи. Omma hayratda.
  - Hey Ari! Qornim ochdi. Balki u-bu narsa buyurtirib berarsan?
  - Meksika taomlari, Italiya taomlari, Yaponiya taomlari...
  - Yaponiya taomlarini xohlayman.
  - Ko'chaning narigi betidagi Yapon taomlari restorani bugun aksiya uyushtirmoqda ekan: bitta «Udon» lag'moniga be'pul to'rtta sushi sovg'a qilinar ekan.
  - Nordon-shirin sous esdan chiqmasin.
  - Sira unutilmaydi. Buyurtmani berib yubordim. Aytgancha, vanna ham to'ldi.
  - Hey Ari, judaham mehribonsan. Balki ertaga o'rnimga ishga borarsan?
  - Haddingdan oshma, Robert!
- Muxlislami aftida kulgu aralash hayrat. Misli fantastik kinolardagi kosmik kemadagi uchuvchi bilan bort suhbat sahnasi ularning ko'z oldida ro'y berayotgandi. Robert o'rnidan turib taqdimotini yakunladi:
- Chiroqlarni yoqish-o'chirish, suv harorati, xona harorati, hovlidagi suv sochgichlarni boshqarish, kamera kuzatuvi, uy havfsizligi, o'nlayn do'konlarga buyurtmalar berish va hokazolar aqlli uyda mujassam. Agar ushbu loyiha sizni qiziqtirgan bo'lsa marhamat tortinmasdan sinab ko'rishingiz mumkin!
- Qiziqqanlar Arini hisobidan be'pul pitsa buyurtma qilishga urinishar qolganlar esa tarqalishni boshlashdi. Bobur pavilionni yakuniga kelib qolganini payqagach yurgan yo'liga bir qarab qo'ydi. Yo'lkorsatkichlardan manziliga borish uchun tibbiyot paviloni orqali yurishi kerakligi ayon bo'ldi.
- Kelinglar bir vaziatni tasavvur qilaylik. – dedi oq xalat kiygan taqdimotchi. – Bir qariyaning ahvoli dabdurustdan yomonlashishni boshladи. Nafasi og'irlashib, u hozir o'zini hushdan ketishini sezmoqda. Yordam izlab atrofga qarasa hech kim yo'q, baqirgani esa holi yo'q. Shunda brasletdagi qizil tugmachani bosishning ayni payti. Tugmachani bosganidan so'ng bemorning aynan o'sha daqiqadagi holati va uning kasalliklar tarixi shu zahoti eng yaqin bo'lgan tez yordam muassalariga yuboriladi. Hamshira bemorga yordamga kelib, uni qon bosimini tekshirish, u ilgarilari nima kasalliklarga duch kelganini so'roq-savol qilish va hokazolarga vaqtini ketkizmasdan, ilgari brasletdan kelgan ma'lumotlar bilan tanishib, manzilga yetib kelgunicha bemorga ayni qanday dori yoki yordam kerakligini bilib bo'ladi. Bunday vaziatlarda har bir daqiqa hayot-mamot masalasi.

Bobur navbatdagi ko'rgazmalarda uzoq qolmasdan asl mano'sini bilgach, keyingisiga o'taverdi. Yo'lda «Robot-Odamlar» degan peshtaxtadagi yozuv ko'ziga tushib qiziqtirib qo'ydi. Zalga kirdi. Namoyish hali boshlanmaganini tushunib xursand bo'ldi-yu, muxlislarning orasidan bo'sh o'rindiq qidirayotganda ularni bir ko'zdan kechirib ozgina qo'rquvga tushdi: kimningdir bir qo'li yo'q, kimningdir bir oyog'i, yana kimnidir ikkala

oyog‘i ham yo‘q... U yomon hayollarini nari uchirib o‘rtaroqdagi qatorning chekkasidan joy oldi.

– Diqqat! – dedi oq liboslik ayol sahnadan turib. – Avvalambor, barchangizni bugun shu yerda ko‘rib turganimizdan bag‘oyatda mamnunmiz! Taqdimotimizning boshlanishiga sanoqli daqiqalar qolmoqda, shuning uchun barcha ehtiyojli ishlaringiz bo‘lsa, ularni hozir bajarib kelishingizni iltimos qilib qolamiz.

O‘sha zahoti Boburning yoniga nogironlarning g‘ildirakli aravasini mingan bir kishi kelib to‘xtadi.

– Ishqilib ulgurdimmikan? – o‘ziga savol berdi u, ammo Bobur bu gapni unga murojaat qilib aytilgandek qabul qildi.

– Ha! Ayni vaqtida yetib keldingiz, – tinchlantirdi uni Bobur.

– Xudoga shukur! – Deb, nafasini rostlab o‘zini bosdi. – Bilasizmi, bugun mening xayotimda juda muhim kun, – deya gapini davom ettirmoqchi bo‘lib turganda taqdimot boshlanib qoldi. – Ha mayli, keyin o‘zingiz tushunib olasiz, – dedi va butun e‘tiborini sahnaga ko‘tarilayotgan odamga qaratdi.

– Xush kelibsizlar, muhtaram xonimlar va janoblar! – dedi sochi oq, uzun va jingalak turmakli kishi sahnaning o‘rtasiga kelib. – Barchamizni bu yerga bugun bir narsa to‘pladi – «to‘liq hayot kechirish istagi»: bolalarimizni o‘z qo‘llarimiz bilan ko‘tarish, ko‘chalarga o‘z oyoqlarimiz bilan chiqish. Aksariyat odamlarga bu orzular oddiy narsadek tuyiladi. Biroq, ming afsus, Parvardigor, barchamizni o‘z kamchiliklarimiz bilan yaratgan ekan. Baxtsiz hodisalarning qurbaniga aylanganlarning hayoti ikkiga bo‘linadi. O‘sha kundan oldin va keyin. Bir kuni ko‘zingizni ochib tana a‘zolaringizning biri yo‘qligini anglash juda achinarli holat. Bu kabi hayot sinovini deb chuqur depressiyaga tushish hech gap emas, chunki qolgan umrni nogironlik jabri bilan o‘tkazish juda uqubatli. Lekin, tarixda o‘ziga bo‘lgan ishonchni so‘ndirmay, irodasini bir mushtiga to‘plab, bunday hayot sinovini tik qarshi olgan insonlar ham bo‘lgan. Iltimos, e‘tiboringizni ekranga qaratsangiz.

Muxlislarga tarixda o‘z taqdirini yenggan shaxslarning biografiyasi namoyish etildi. Qahramonlarning safida shunday insonlar ko‘rsatildi: urushda chap oyog‘idan ayrilganidan so‘ng uning o‘rnini uzun tayoq bilan almashtirgan yigit; traktor tagida ikkala oyog‘i ham qolib ketganidan keyin ularning o‘rnini g‘ildiraklik to‘rburchak taxta bilan almashtirgan bola; dalada ishlayotganda somon kesadigan uskunani ichiga qo‘lini tortib ketganidan so‘ng uning o‘miga cho‘mich, qoshiq kabi oshxona buyumlarini tiqsa bo‘ladigan taxtali moslamani yaratgan ayol. Bu odamlarning barchasining taqdir sinovlarini tabassum bilan qabul qilish qobiliyati va irodasi tomoshabinlarni juda ham ruhlantirdi.

– Tomosha qilgan lavhangizdagi odamlar o‘tgan asrda, tunda kerosin yoqilgan davrlarda yashashgan. Hozirda texnologiyalar oldinga katta qadam tashladi. Endilikda kasalxonalarda bemorga odam emas, balki robot hamshiralik qiladigon zamonga kelib qoldik. Robot qo‘lini, ya‘ni «Bionik protez» qo‘lni odamga ularash masalasining ustida men yillar davomida izlanishlar qildim va bu vaqtning ichida yuzlab doktorlar, texnologlar, injenerlar bilan ko‘p mulohazalar o‘tkazdim. Ushbu texnologiya kelajakda amalga oshishiga ishonmaganlar, qarshi chiqqanlar ham bo‘lgan. Kunlarning birida

tasodifdan sodir bo‘lgan uchrashuv hayotimni butunlay o‘zgartirib yubordi. U inson mening g‘oyanga o‘zimdan ham ko‘proq ishondi. Marhamat, qarshi oling...

Nihoyatda e‘tibor bilan kuzatib o‘tirgan Bobur endiroqda yonida to‘xtagan kishini sahna tomon yo‘l olganini u bir necha qator uzoqlashganidan keyin sezdi.

– So‘z berganingiz uchun rahmat! – dedi u kishi. – Ilk bora biz professo‘r bilan 5 yil oldin Massachusetsdagi konferensiyada uchrashganmiz. Bu inson doimiy qatnashchilarining ichida ajralib turardi. Kim bilan suhbat boshlashidan qat‘iy nazar, u faqat bir narsa haqida gapirar edi, – «bionik qo‘l va oyoq». Navbat menga keldi. Vaziatimni ko‘rib «umringizda yana bir marotaba sakrashni xohlaysizmi?» dedi-da, javobimni ham kutmasdan ishqivozlik bilan orzusini doston qilishni boshladi. Uning ko‘zlaridagi yonayotgan olov mening yuragimdagи o‘chib qolgan umid shamini yana yondirdi. O‘sha kundan boshlab yillar davomida olib borgan izlanishlarning natijasini men hozir sizlarga namoyish qilaman, – deb oyoqlarining ustiga tashlangan kichik ko‘rpani olishi bilanoq butun zal hayratga tushdi. Uning tizzasining pasti bionik oyoqlar bilan davom etardi. Odamlarning u to‘g‘risidagi taassurotlari – xuddi qarshilarida yarimi odam, yarimi robot turganday edi. U o‘rindiqqa qo‘llari bilan tayanib o‘rnidan turdi. Bundan muxlislar yanada ajablandi. Qo‘llarini keng «Mana, men yura olaman!» degan ma‘noda yozib, qadam tashlashni boshladi.

Najotsizlikka ko‘nikib ketgan yuraklarning shamchiroqlariga Yaratganning o‘zi olov jo‘natgandek edi. Yaltillayotgan ko‘zlarga ishonch qaytdi, «endi men yana to‘liq hayot kechira olaman» deb suyunishdi.

Sahnaga, chap qo‘li tirsagigacha yo‘q ayol ko‘tarilib bionik qo‘lni taqdi. Yangi jismni o‘rnatish jarayoniga atigi o‘n soniya vaqt ketdi. Ayol bionik bo‘lgan qo‘lini balandga ko‘tarib, barmoqlarini qimirlatib ko‘rdi. Keyin sahnadagi stolda turgan shisha idishga qo‘lini uzatdi. Idishni mahkam ushlab, balandga ko‘tardi va muxislarga o‘zining yangi «qobiliyatini» namoyish qildi. Tomoshabinlarning hayajondan aralash quvonchdan ko‘zları sharsharaga aylandi.

Bobur kerakli paviloniga o‘tayotganga futuristik superavtomobillar taqdimotiga duch kelib uni yonidan o‘tib ketolmadi. U yetib kelgan chog‘ida taqdimotchi yakuniy so‘zlarini aytayotgan ekan. O‘rta yoshdagi, zamsh materialli to‘q-qizil rangli kostyumdagi bir kishini ko‘rib u boshlanishidan shu yerga bo‘lgan bo‘lsa kerak deb o‘ylab unga murojaat qildi:

– Ma‘zur tutasiz, biroz ulgurmey qolibman, taqdimot nima haqida bo‘lganini aytib bera olasizmi?

Savolni eshitgan kishi Bobur tomonga o‘girildi, so‘ng «ha» bildirgisi sifatida boshini yengil egdi va to‘g‘riga qarab gap boshladi:

– Gap haydovchisiz avtotransport vositasi haqida bo‘ldi. Haritada manzilni belgilasangiz bo‘lgani. Avtomobil sizni va sog‘-omon manzilga yetkazib qo‘yadi. Har holda taqdimotchi shunday deb ishontirdi. Taraqqiyot kelajakda robotlar odamning barcha ishlarini o‘z zimmasiga olishga qarab ketmoqda va shunday bo‘ladi ham.

– Qaydam... – e‘tiroz bildirgandek labini burdi Bobur. – Bir do‘stim yoshligidan tarjimon bo‘lishni orzu qilardi, ammo bunga uning otasi «Seni ishingni kelajakda onlayn tarjimonlar egallab bo‘ladi» deb qarshi chiqqan ekan. Savol tug‘iladi: Bashorat ro‘yogha chiqdimi? Javob: Yo‘q! Onlayn tarjimon haligacha bitta-bitta alohida so‘zlarini

va oson gap birikmalarini tarjima qilishni uddalaydi, ammo u qiyinroq matnga, yoki bo'lmasam she'rlarga duch kelganda... – yana ilgaridek labini burdi. – Bu kabi o'xshash misollar ko'p.

Yonidagi kishi bu fikr-mulohazani eshitganidan keyin butun tanasi bilan ogirilib:

– Siz bu yerga shunchaki ko'rgazmani ko'rgani kelgammisiz yoki...? – qiziqdi u.

– Ikki soatdan keyin mening taqdimotim bo'lib o'tadi.

– Yo'naliishi bilsam bo'ladimi?

– Kengaytirilgan reallik.

– Hm... Juda ham qiziqtirib qo'ydingiz, – dedi ko'zini kattaroq ochib, – men albatta taqdimotingizni ko'rishim kerak!

Bobur tasodifiy uchrashuvdan paydo bo'lgan muxlisiga taqdimotning vaqtini va manzilini tushuntirib, u bilan xayrashdi.

Taqdimotiga tayyorlanish maqsadida qahva buyurtma qilib noutbuki ochib gaplarini yana bir qaytardi. Keltirilgan qahvani ta'tigan Boburning nigohi gav-jum olomonda, hayoli esa o'uda:

«Zamon yuqori texnologiyalar davri ostonasiga yaqinlashib qolibdi. Yo'q, axir bu ayni hozirgi davr-ku: aqli uy, blokcheyn, sun'iy idrok. Aslida, hozirgi zamon yuqori texnologiyalar emas, balki robotlar davriga kirishning ostonasida turibdi. Hamma narsa avtomatlashtiriladigan va robotlashtiriladigan davr. Qiziq, bu qanday zamon bo'larkin-a? Ertalab ovozli yordamchi uyg'otib, xayrli tong tilaydi. U devordagi ekranda uyqu sifati to'g'risidagi ma'lumotni ko'rsatib bugungi ishlarning ro'yhatini eslatib o'tadi. Oshxonada yangi tayyorlangan kofe kutib turgan bo'ladi. Chaqirilgan taksi haydovchisiz yetib keladi. Robotlar dars o'tadi. Tushlikni uchar dron deraza tokchasiga tashlab ketadi... Lekin dunyo qanchalar texnologik rivojlanmasin bir narsa hech qachon qadrini yo'qotmaydi, u ham bo'lsa – insoniy hissiyotlar».

Qayerlardadir o'qigan bir eski maqola esiga tushib, uni biroz o'zgartirib, o'zining maqolasini to'qidi: «Robotni qancha qilma tarbiya, oshpaz bo'lur, rassom bo'lur, ammo aslo bo'lmas odamiy!». - bexosdan labini burchagida kulib qahvani yana tatidi.

## Bolalik

### III

Yodgor hozirgina dunyoga kelgan qo'zichoqni qo'yxonadan quchog'ida ko'tarib olib chiqadi. Boburning "unga o'zim qarayman" degan iltimoslariga Yodgor "mayli, o'zingdan ko'r" deya ko'nadi. O'rilgan o'tlar, tarvuz po'choqlari, yeylimagan mevalar – qo'zichoqni qormi ochmasligi uchun uning tuyog'i ostida; yoniga omborxonadagi eski kraska bankasini qo'yib, suv bilan to'ldirib turishni ham unutmasdi.

– Buvijon, qo'zichoqning onasi ochofat ekan, - dedi Bobur qo'lida qovun po'chog'ini ushlab.

– Nimaga unday deysan, bolajonim? – so'radi Sadoqat aya to'qiishini to'xtatib.

– Qo'zichoqqa oborib bergen narsalarimni o'zi yeb qo'yyabdi.

– Voy o'zim sendan o'rgilay, - deya kuladi sadoqat aya. – Qo'zichoq hali kichkina-ku. Sen bergen ovqatni yesa bo'kib qoladi, bolam. Shunga onasi yeb, bolasiga sut qilib beradi.

– Yo'q, u baribir ochofat. – deydi u. – Qizg'onchiq ochofat.

Bolakay hovlining qo'yxonadan qarama-qarshi qismiga qo'zichoqqa kapa yasab berishga kirishadi. O'tin shoxchalarini doira shaklida yerga sanchib devor yasab, poliga somonni yoyadi. Tomi uchun eski-tuski qoplarni topib chiqib, ularni yog'och uchlariga bog'lab, tamaddi sto'lini qo'yxonadan yangi joyga ko'chiradi. Kapa tayyor bo'lgach uning egasini olib kelgani qo'yxonaga boradi. Qo'zichoqning onasi bolakayni mehrini sezib uni bolasini yoniga indamay yaqinlashtirardi. «Senga zo'r uycha yasab qo'ydum. Endi hech kim seni ovqatingni yeb qo'ymaydi» deya bolakay qo'zichoqni ko'tarib oborib yangi kapaga joylashtiradi. Yurishni endi o'rgangan qo'zichoq nozik, hali kuchga to'limgan tuyoqchalari bilan o'qirib-cho'qilib yurib onasini oldiga qaytadi. Bolakay uni qaytaraman deb. «Qaytib borsang senga berilgan ovqatni yana yeb qo'yishadi» deya uni kapaga joylashtirgani engashsa qo'zichoq hali bolakayning quchog'idan tushmay tipirchilashni boshladi. Bolakay o'zi ham cho'chib uni qo'yib yuborishi bilan qo'zichoq avvalgidanham tezroq onasini yoniga shoshdi.

Bo'layotgan ishlarni Sadoqat aya ora-orada qarab kuzatib turgandi.

– Bechora jonivorni qiyavordingku, bolam! – dedi ignani uzun tortib.

– Ahir men unga zo'r uycha yasab berdim-ku. – dedi qo'zichoqdan hafa bo'lgandaqa uni qo'li bilan ko'rsatib. - Nimaga o'zini uyida yashagisi kelmayabdi?

Onaxon yana bir ip o'tkazib, ignani yostiqqa sanchidi-da chetga oldi.

– Kelaqol, - qo'lini to'shakni ustiga qo'yib Boburni yoniga chaqirdi. Nabirasi yechilmayotgan shippagini silkitib-silkitib qo'yniga kirishi bilan uning boshidan silab birinchi hayot saboqini beradi: «Har bir jonzot ozodlikka intiladi. Unga oltin qafas yasab, shoxona sharoitlar qilib bersang u seni yomon ko'rib qoladi. Ozodlik – bu eng katta boyliklardan biridir. Uni jonzotdan mahrum qilib o'zingga eng yomon dushman orttirasan. Qoqliganni faqatgina ko'tarish uchun egilgin».

## Bolalik

### IV

Sadoqat aya o'tiradigan so'rining ustida baland uzum toki gavdalanardi. U tomorqadan boshlanib to toming yomg'ir suvi tushadigan yo'lakcha qadar ko'tarilgan temir karkasni ilon kabi butunlay o'rab olgandi. Tokning ko'rinishidan yo'g'on poyalari temir karkasni qamrab olgan tabiat mo'jisasing qudratini jilovlab turgandek tuyilardi. Bu salobatga erishguncha ne'lar ko'rmadi u: yosh kelin qo'llaridan suv ichdi, qurt-qumirsqalardan dastidan betob bo'lib qolsa hamshirasidan mineral-o'g'itlar oldi, qo'lini balandroq cho'zib yetaolmayotgan chog'larda teparoqni ushslashga yordam berdi malikasi. Malikasini ranjitishgan kunlami ko'rdi, g'azabidan bir qator shingillarini so'ldirib qo'ydi. So'ng farzand quvonchini ko'rdi, o'sha mavsum odatdan ko'proq hosil

sovg'a qildi. Qishda qordan asradi, yozda issiqliqdan berkitdi. Mana endi yillar o'tib kampirining qo'riqchi-hamrohi yana necha bahor ko'rshini bilmay so'nggi onlarni uning hotirjamligini ta'minlab berish uchungina yashardi. Kampir to'qib o'tirganida biron bir mayda joyiga ko'zi o'tmay qolganida, qo'riqchisi bir yaprog'ini fido qilib quyosh nuriga darcha ochib berardi. Kampir yorug'likka ignani oborib ishini bitirardi-da so'riga teparoq chiqib olardi. Bunga daraxt «Ex, malikam» deya ertangi kunigayoq darchani yangi yaproq bilan yopib qo'yardi.

Bobur tosh bilan yong'oq chaqayotgandi. Yong'oq sirpanib chiqib ketmasligi uchun uni bir qo'lida ushlab yengil zarba berdi. Yana urindi. Ohiri kuch bilan toshni yerga gursillatdi-da yong'oq bilan katta barmog'ini ham chaqib oldi. Og'riq kuchliligidan o'ylanmay kir barmog'ini og'ziga soldi. Shu holda uvvillab yig'lab o'tirgan nabirasini buvisi tezda ko'rib oldiga chaqirdi.

– Qo'limi chaqvoldim, - yig'lardi bolakay buvisining etagida.

– Bolamey, - boshidan siladi buvisi, – omborxonadagi bolg'a bilan yengil ursang chaqlidi qo'yadi yer yutgur.

Bolakay buvisi aytganidek omborxonaga kirdi. Hammayoq yillar davomida birov kirmagandek qalin chang bosgan. Loy chaplangan devoldagi miqqa zang bosgan ot taqasi osilgan, nariroqda bukilgan velosiped g'ildiragi yotardi, chetroqda eski yozuv mashinkasi turgandi. Bobur oldiga borib kichkina barmogi bilan bitta harfni bosib ko'rди. Bosishi bilan uni ichidan tayoqchasi chayonga o'xshab oldiga chiqdi-da qayta o'miga qaytdi. Sinchiklab qarab o'zining ismidagi harflarni bir-ma-bir bosib ko'rди. Qo'lining og'rig'i qaytgandek tuyildi. Uskunada qo'g'oz bo'lmay turib, undan qay maqsadda foydalanishni bilmasa ham, bolakayga jarayonni o'zi qizik tuyilardi. Har bir bosganida tepa qismi o'ngga bir surilardi. Ohiri bossa ham surilmay qo'ydi. Qatib qoldimikin deb o'ylab qattiqroq bosib ko'rди. Uni ustini tekshirayotganda orqasidagi oraliqda qisilgan rogatkaga ko'zi tushdi. Yangi o'yinchoq avvalgisidan ham qiziqarlik edi. Yengini kir qilib bo'lsaham oraliqqa qo'lini cho'zib rogatkani oldi. Cho'zib ko'rди. Tashqariga chiqib o'lja qidirdi. Uzumni cho'qiyotgan qush birinchi bo'lib ko'ziga turshdi. O'z mulkini himoya qilish bahonasida bolakay yong'oqchalik toshni o'qladi-da, bir ko'zini qisib qaroqchini mo'ljalga olayotgan chog'ida, cho'zmani tortib turgan, hali tuzalib ulgurmagan barmog'iga kuchli og'riq kelib cho'zmani qo'yib yubordi. O'q nishondan qochib to'g'ri ayvonni oynasiga tegdi. Oyna siniqlarining sharshara ovozini eshitgan Sadoqat aya boshini ko'tarib hovlida nabirasini izladi. Katta barmog'ini so'rib turgan bolakay buvisinig nigohini o'zida tutib rogatkani tezda orqasiga berkitib oldi.

– Beri kel!

Bobur so'ri yoniga soldat qadam tashlab keldi.

– Orqangdagi nima?

– Hech nima, - dedi bolakay barmog'ini og'zidan chiqarmay.

– Narigi qo'lingdagi.

Bolakay orqasidagi rogatkani lat yegan qo'liga olib, sog' qo'lini ko'rsatdi.

– Mana, hech narsa yo'q. - mitti kaftini katta ochib namoyish qildi.

Buvisi uning ko'ziga tik qarab chuqur nafas olganidan keyin u o'zi yorildi. – Uzumlarizni yeb qo'yayotgan qushni haydamoqchidim. - dedi yig'lamsiragan.

Bu qilmishni jazosiz qoldirmayman deb turgan ona bolasini yoniga chaqirib ikkinchi saboqni berdi.

– Hudo har bir jonzotni risqini beradi. Biz, har yili uzum shingillarini gazeta bilan o'rab, atayin 3-4 tasini qoldirib qo'yamiz. Chunki bu, hovlimizga kelib qo'shiq aytadigan, o'zining tashrifi bilan manzarani bezab turadigan qushlarning risqidir. Agar poylab tursang, u bir dona uzumni tumshug'iga olib, o'zini qornidan ham avval to'gri iniga olib borib bolalariga berishga intiladi. Bir shingil uzumni ularga bersak bizni hech qayerimiz kamayib qolmaydi. Ko'nglingni kengroq qilgin, ho'pmi bolam.

Buvisi gapirgunicha bolakay barmog'i og'zidaligicha uxlab qolibdi. Ohirgi «hopmi bolam» deganiga hiyol kallasini qimirlatdi-da so'riga teparoq chiqib yotdi. Uzum toki yaprog'ini to'kib quyosh nurini Boburning hali qurimagan ko'z yoshlariga yo'naltirdi.

## *San Fransisko.*

### II

Kremniy vodiysi - startaplar poytaxti. Ilk bor bu so'z birikmasini jurnalist Don Xofler o'zining yarimo'tkazgichlar sanoatiga bag'ishlangan hisobotida keltirgan. Bugunga kelib Vodiy kremniy homashyosining asosiy yetkazib beruvchisi bo'lmasa ham uning norasmiy nomi hamon ustuvorroq.

Vilyam Hyulet va Deyv Pakard asos solgan dunyoga mashhur Hewlett-Packard (HP) kompaniyasi avtomobil garajida tashkil topgan. Kelgusida startapni garajdan boshlash muvafaqqiyat kaliti hisoblangan.

Apple kompaniyasining asoschilar Stiv Jobs va Stiv Voznyak kompyuter ishqivozlari klubida uchrashib qolishadi. Google asoschilar Sergey Brin va Larri Pey Stendford universitetida talabalik davrida tanishishadi. Ularning g'oyasiga investorlar safida oliyoh professo'rлari ham bo'lgan. Bu kabi tasodifiy uchrashuvlar, muvaffaqiyat tarixlari nafaqat AQSHdan balki butun dunyodan orzumand va intiluvchanlarni o'ziga tortmoqda.

Startaplar talvasasiga puldor milliarderlar ham chalingan. Ular katta istiqbolga ega bo'lgan startapchilar ovini boshlashgan. Urushda hamma qurol yaxshi degandek oltin kallalarmi jalb qilish uchun: gollivud yulduzları uylarinig qo'shni villalarda izlanish va ijod uchun eng zo'r sharoitlardan to maxsus yollangan, qarashlari jozibador, kelishgan qaddi-qomatiga yopishgan libosdagi qizlargacha.

Ulardan biri besh yuz kishilik taqdimot zalining birinchi qatorining o'rtasida o'tirgandi. Bobur sahnaga ko'tarilganida oyoqlarini birini ustiga chalishtirib o'tirgan qizil liboslik jonon uning e'tiborini tortdi. Ko'zlari to'qnashdi. So'ngra Bobur nigohini ko'tarib boshladi:

– Bugungi kunda dunyo jadal rivojlanib bormoqda...

Tiniq nutqi, o'zini ishonchli tutishi, gap orasida o'rinli maqol ishlatsihi, texnologiyalar olamidagi muammolarga chuqr qarash bilan yondashib ularning

yechimlarini hech kim o'ylamagan tomonidan yuzaga olib chiqqan yosh yigitni suket saqlagan zal diqqat bilan tinglardi. Kengaytirilgan reallik texnologiyasi kitobxonlikda va ta'lim tizimida ulkan o'zgarishlar qilishga qodirligi haqida so'zlar ekan, kuzatuvchilarning orasidagi investorlarning miyyasining bir qismi g'oyani moliyalashtirish yo'llarini o'ylash bilan ovora edi. G'oyaga qiziqish bildirgan taqdirda ayimlarining qudrati startap muvaffaqiyatining yo'lida to'sqinlik qiladigan qonunlarni qayta-ko'rib chiqazishga ham yetardi.

– Men ishonaman-ki, kelajakda kengaytirilgan reallik texnologiyasining odam hayotidagi o'mi xuddi suv kabi muhim bo'ladi! E'tiboringiz uchun tashakkur. - deya tomoshabinlarga hurmat bildirib, sal egilib qo'ydi.

Qarsaklar ostida sahnani tark etayotgan Bobur bilan tanishishga navbat hosil bo'layotganida Federiko birinchi bo'lib uni oldiga bordi:

- Qoyil! - Yengil qarsak cholib yoniga keldi.
- Qo'limdan kelgancha harakat qildim.
- Federiko. - Qo'l uzatdi.
- Bobur, - dedi u ham qo'l uzatib, – Shunchaki Bo'b.
- Bilasanmi menga g'oyang yoqti...

Federiko Boburni maqtab uni o'zi tomon o'girmoqqa harakat qildi. Bobur orqaga bir o'girilib u bilan tanishishni kutib turgan shaxslarni ko'rib:

– Federiko, sizni ranjitish niyatim yok-ku, ammo qolganlar bilan ham kontakt almashvosam degandim.

Federiko Bobur nima haqida qayg'urayotganini tushunib turgandi. Uni tezroq qiziqtirishning yagona yo'li borligini tushunib:

– Agar startaping rostdanham zo'rligida meni ishontira olsang men uni rivojlanishiga yuz million AQSH dollari investitsiya kiritaman.

Bobur taklifni eshitib atrofda uni kutib turganlarga bir nazar tashladi-yu ulardan hozirgiday taklif chiqishiga shubxa qilib boshini beixtiyor yana Federiko'ga burdi.

\*\*\*

Yuqori qavatdagi yopiq ko'rgazmadagi sanoqli mexmonlarning har biri IT olamida katta ta'sirga ega shaxslar edi.

– Haqiqiy ko'rgazma mana shu yerda, - deya ularni chetlab Boburni zalning burchagiga chorladi Federiko.

Detektiv kinolarda politsiyaga tushganda so'roq-savol uyushtiriladigan xonadagi oyna kabi derazaga kelib:

– Ushbu maydon hozir men senga ko'rsatmoqchi bo'lган texnologiyani sinovi uchun qurilgan, - dedi oyna ortidagi polidan devorlarigacha oppoq xonaga qarab. – Yangi davning sotsial tarmog'i Virtual Dunyoda bo'ladi. Uyg'onanganingdan so'ng VR-ko'zoynakni taqib ikkinchi o'zingni hayotini yashashni davom ettirasani. U olamning ichidagi tijorat o'zining kriptovalyutasi orqali amalga oshiriladi va eng qizig'i shuki, virtual dunyoda ishlab topgan pulingni real dunyoda ham sarflash imkonи mavjud. Dizaynerlar virtual olamni shakllantirishda iloji boricha keng ommaga taniqli qiyofadan va hikoyalardan foydalanishgan: Avatar, Uzuklar hukumдори va hokazo. Dasturchilar esa sun'iy idrokni shu darajaga olib chiqishdiki, muhid sening har bir harakatingga o'zi baho berib o'zi istagancha javob qaytaradi. Jonzotlarning fe'l-atvorlari ham asli

qahramonlaridan ko'chirilib, ularning harakatlari bir-biriga bog'liq emas, undan tashqari to'liq mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega.

- Juda qiziqtirib qo'ydingiz.
- Istanasang bir sayr qilib ko'ring.
- Men tayyorman!

Federiko shay turgan yordamchiga ishora berdi. U Boburning qo'liga mahsus qo'lqoplarni kiydirdi:

– VR(Virtual Reallik)da biron-bir narsani ushlasangiz mato orasidagi millionlab o'tasezgir senso'rlar vibratsiya yordamida jismni shaklini takrorlaydi. Bu esa, - yordamchi oyoq senso'rlarini taqdi, – VR da harakatlanish uchun. Ichkaridagi qizil nuqtaga borib ko'zoynakni taqishingiz bilan dasturni ishga tushiraman.

Bobur butunlay oppoq sinov xonasiga kirib, nuqtaga borib VR-ko'zoynakni taqdi.

Qorong'ulik asta sekin yorishib mo'jizaviy o'rmonning tabiatini ko'rina boshladi: rang-barang kapalaklar uzun poezd kabi uchib havoda suzayotgan meduzalardan hosil bo'lgan to'siqlarni birma-bir aylanib o'tishdi; baland daraxtlarning shoxlarida ola-bula olmaxonsimon hayvonlar yaltillab turgan yong'oqqa yugurishib, uni qo'Iga kiritishganidan keyin talashishni boshlashdi va o'lja hech kimga nasib qilmay pastga tushib ketib, dumalab Boburning oyog'i ostiga keldi. Bobur uni barmoqlarida qimchib: «juda noodatiy hissiyot» - o'yladi u va bir tepaga irg'itib havoda uni yana ushladi. «Qo'limda bir nimani ushlab turganim sezyapman-u lekin...» - birdan yong'oq juda tez pirpirab qimirlab yonlардан qanot yoyib Boburning qo'lidan chiqib ketdi. Shuv etib chaproqqa o'tib havoda bir joyida parvoz qilib bir zum turdi, shuvvillab yana joyini almashtirdi, Boburni ko'zdan kechirayotganday. So'ngra, nari uchib go'zal pushti gulning ustiga kelib uni changlashni boshladi. Undan gul go'yo rohatlangandek barglarini holi qo'ydi. Ochilgan gulga Bobur barmoqlarini yaqinlashtirayotganda gul bu harakatni hujumday baholab tepe-go'zal qismini ichiga yutib tikanli barglarini qoldirdi. Uni ketidan yon atrofida ekilgan sheriklari ham berkindi.

– Nodon! - qax urib kulishni boshladi kimdir.

Bobur o'girilsa balandda qizil, dum-patlari ko'k, tumshug'i ilmoq kabi bukilgan to'ti qush, xo-xolab kulganidan muvozanatni yo'qotib orqaga ag'darilib ketay deb turgan ekan. Shunday bo'ldi ham.

– Sen kimsan?

– Menmi? - Qanotlari bilan ustini qoqdi, – Men ilgari Alovuddin bilan sarguzashtlarda yurganman endi esa, mana shu olamda sendaqa galvarslar bilan o'ralashib yurishga kunim qoldi.

– Federiko to'g'ri aytibdi. Har bir qiyofa rostdan ham qahramonning asl nusxasi. Sen, multfilmdagi to'tiga o'xshab o'zing haqingda juda baland fikrda ekansan.

– O'ylaringda mayjud bo'lgan do'sting seni boshingni nimalar bilan achitgani menga qorong'u, lekin meni qanaqadir to'tilar bilan aslo solishtira ko'rma. Men, - o'zini ko'rsatish uchun yaqinidagi shoxchaga sakrab chiqib davom ettirdi qaddini ko'tarib, – tarixi yer yaralishigacha cho'zilgan, avlodi buyuk... - to'ti maqtanish bilan ovora oyog'i osti qimirlashni ham sezmadni.

U turgan shox qattiq silkiganidan to'ti yerga quladi. Ko'zini ro'parasida oq shoxlik ayiqning ko'zlari uyg'ondi. Ulkan dev o'midan turib ustidagi uni qamrab olgan, chevar

o'simliklar to'qigan ko'rpani yirtib tashladi-da, yerga panjalari bilan gursillab tushib o'kirdi. Rangi oqargan to'ti «qochib qol» deb baqirib pala-partish qadam tashlab nari qochdi. O'sha zahoti Boburning bir qo'lida kamon bir qo'lida nayza paydo bo'ldi. To'ti qoqilib daraxtga tiralib najot kutardi. Bobur devni nishonga olgan chog'ida to'tining «bir nima qilsangchi landavur» deb qilgan domangirligi uni g'azabini keltirib achchig'idan nayzani to'tiga yo'naltirdi. To'ti boshidagi patlarini silab o'tib sal teparoqqa sanchilgan nayzaga termuldi. Yana-da balandroqda og'riq sezgan daraxt baquvvat novdalarini vertalyot parragi kabi bir aylantirib panjasini ko'targan ayiqni uzoqqa uloqtirib yubordi.

To'ti nafasini rostlayman deb o'zini bo'sh qo'yganda qolgan daraxtlar ham jonlanishni boshlashdi.

Ikkalasi engashib yugurayotib ko'zga ko'rinnmas tuzoqqa qadam bosishib tunnelga tushib ketishdi.

Yerto'ladagi g'orning oltin tangalaridan hosil bo'lgan adirliklariga hali sanchilmay turib, havoda, barcha boyliklarni baland ustunlar o'rab olganligini, eng baland qirda bahaybat ajdaho uxbay yotganini ko'rdi Bobur.

– Mening hukumdorligimga bostirib kirishga kim jur'at etdi?! - ajdar qanotlarini yoyib balandga ko'tarila boshladi.

Bobur tillo ardrdan sirpanib ustunning orqasiga berkinishga ulgirdi. To'ti Bobur tushgan joyga qulab oyog'i oltin ichi ko'mildi. Ajdarning qo'nish kuchi tilla tangalarni sachratib yubordi. Qaltirab turgan to'tiga yaqin kelib:

– Qanotlaring nimjon... Qorning katta... Tumshug'ing bukilgan, o't purkasang o'zingni o'zing kulga aylantiras... Sen ajdahoga o'xshamaysan... Kimsan ovsar?

– Men... Haligi... - yutindi. – Tuxumdan yorilib chiqayotganda po'stloqqa boshimni qattiq urib olganman.

Ajdar qo'rqinchli kallasini burib ustunlar tomon nazar soldi va qimirlagan narsani ko'rganday bo'lib o'sha tomon uchdi. Boburning otgan nayzasi unga tegib sinib ketdi, olov ikkinchisini parga aylantirib yubordi. Nima qilishini bilmay turgan to'tini g'orning eng tepasida quyoshday nur sochayotgan tillo rang nayza e'tiborini tortdi. Bir necha urinishdan so'ng zo'rg'a, lat yegan qushdek parvoz qildi. Nayzani ushlab hech qancha uchmay uning og'irligini ko'tarolmay qulay boshladi. Shunda, o'zini yo'qotmay, qanotlarini keng yozib, harbiy samolyot kabi mo'ljalni olib Boburni yoniga qo'ndi.

– Qayerdasan? - ajdarning yovuz ovozi eshitildi.

– Mana bu yerda, - dedi ustun ortidan chiqqan Bobur.

Ajdar o't purkashga shaylanib gavdasini ishiranida oltin nayzani o'qlab tarang tortib qo'yib yubordi-da, ajdaho piksellarga parchalanib ketdi. «Siz g'olibsiz!» degan yozuv chiqib bayramona olqushlar, chuldak chalishlar boshlandi.

Bobur VR-ko'zoynaklarni yechdi. Oppoq xona, jimjitlik. Federiko oynaga taqqillatib chiqishga ishora berdi.

– Ta'asurotlar qanday?

– Voqealarga shu qadar ishonib ketibman-ki havodagi yozuv chiqmaguncha men o'zimni virtual dunyodaligimni ham unutib qo'yibman.

– Bu hali hammasi emas. Senga ko'rsatmoqchi bo'lgan asosiy xazinam mana bu. - deya o'z ko'zyonaklarini yechib unga berdi.

- Oddiy ko'zoynaklar?
- Shunchaki taqib ko'r.

Bobur Federikoning uzatgan ko'zoynaklarini taqib lol qoldi: real olamning ustiga gologrammalar chizilgan: Devorlarda infografiklar, yozuylar bijirlaydi; yerda chizilgan yo'nalishlar ularning izidan yurishiga chorlaydi; odamlarni rangli doiralar belgilab qo'ygan, boshlarini tepasida yashil romb shaklidagi chiroq nurlanadi; Federikoning yuzida paydo bo'lган tabassumni yonida «Kayfiyat chog'ligini ko'rsatgichi 70%» degan yozuv paydo bo'ldi, undan keyin kompyuterda biron xatolik sabab qalqib chiqadigan kichik oynada «Federiko sizga do'st bo'lishni taklif qilmoqda» degan yozuv chiqdi. Bobur havoda «ha» tugmagasini bosdi.

- Endi biz rasmiy do'stlarmiz! - Kului Federiko.

Bobur nafas olib ichidagi bo'ron kabi ko'tarilgan ta'asurotlarni so'zga o'girmoqchi bo'ldi-yu, havoni chiqarib:

- Ta'riflashga so'z ojiz. - Deya ko'zoynakni qaytardi.
- Kun ham kechlab qoldi, seni restoranga taklif qilsam nima deysan?
- Real restorangami? Yesa bo'ladigan haqiqiy ovqatlari bilanmi?

Federiko kulib Boburni yelkasiga urib yo'l boshladi.

Restoranning ochiqlikda joylashgan qismining soyaboni bor sto'liga ofitsiant ikkita moxito ichimligi keltirdi.

Qachonki, Bobur «men O'zbekistondanman» desa chet elliklarning yuzida yoki savol tug'iladi, yoki bilishmaganligidan noqulay vaziyatga tushib qolishdan cho'chib boshini irg'ab mavzuni hatlab o'tishga harakat qilisharlari oddiy hol bo'lib qolgan edi.

- Qiziqarli davlat ekan.

Federiko keltirilgan sharbatdan bir tatib, o'zini suyanchiqqa tashlab o'gzaki hayol surishni boshladi:

– Har kuni nufuzli universitetlarning bitiruvchilaridan rezyumelar olaman. Ba'zilarini taklif qilaman, tinglayman ammo, bir narsani nihoyatda kam uchrataman - ulug' g'oyani. Bugun taqdimotingda g'ayrat bilan gapirayotganining ko'rib yuragingdag'i olovni sezdim. Agarda seni g'oyang har bir ta'lim muassasasida, umuman barcha kitoblarda qo'llansa ma'lumot qabul qilish uslubi tubdan o'zgarib ketadi. Senda dunyonni o'zgartirishga intilish bor. Ayni shu narsa bizni birlashtiradi.

Baliq qarmoqqa ilindi deb o'ylab davom ettirdi:

– Universitetni tamomlabsan, shu tufayli men senga San Fransiskoda ish va startapingga investitsiya taklif qilaman.

Bobur oldiroq o'tirib:

– Birinchidan, shunchalik e'tibor bilan mening tabiatimni tasvirlab berganingizdan minnatdorman. Ikkinchidan, sizdek inson meni o'z safiga taklif qilishi ulkan sharaf, qolaversa, bugungi siz ko'rsatgan texnologiyalar meni ham juda qiziqtirib qo'ydi va albatta, men buning ustida yanaham ko'proq izlanishni xohlayman.

- Juda zo'r! - jilmaydi Federiko.

– Lekin...

– Lekin?

– Yaqin kunlardan beri meni bir savol qiyinay boshladi. AQSHda qolib to‘g‘ri qilamanmi? Diplomimni olganimdan so‘ng vatanimga bir borib kelmoqchiman va undan keyingina o‘zimni kelajagimni rejashtiraman.

Bunday javob Federikoni ozgina o‘ylantirib qo‘ydi, sababi qachon qarasa faqat u rezyumelarini qaytargandi, endi esa o‘rinlar almashib qolgandek tuyildi.

– Bunday taklif har kuni ham kelavermaydi, yana bir bor yaxshilab o‘ylab ko‘r.

– Albatta. Hozirgi gapim bilan rad javobini nazarda tutmagan edim. Albatta, o‘ylab ko‘raman.

Federikoning aftidagi o‘zgarishni sezib unga tik qarab qo‘sib qo‘ydi:

– Sizning taklifingiz men uchun endi birinchi o‘rinda!

Bu gapdan keyin Federikoning yuzida sal issiqlik paydo bo‘lib:

– O‘zbekiston haqida yana gapirib berchi. - dedi.

## *Bolalik*

### V

Qishloqdagi ayollar kun botishiga qadar barcha uy-yumushlarini bajarishib shosha-pisha mehmondo‘sit Sadoqat ayaning xonadoniga yugurishardi. Ingichka hoshiyali, ranglarni tiniq ko‘rsatadigan televizorda har kuni bir vaqtida «Jumong» seriali namoyish etilardi. Ayollar serailni mazmunidan tortib liboslarigacha muhokama qilishar ekan, uyda yolg‘iz qolmasliklari uchun yetaklab chiqilgan bolalar ham o‘zlariga o‘yin topish bilan ovora edilar.

Qush inida ko‘rganini qiladi degandek, bolalar, kattalar zavq bilan ko‘rayotgan serialning aktyorlariga, undan chiqdi ular maquillayotgan qahramonlarga taqlid qilishga intilishib, o‘rta asr askarlarining qiyofasini o‘zlarida yaratishni rejashtirishmoqda edi:

– Men Jumongdaqa qilich yasayman, - dedi Bobur.

– Men Jumongdaqa kamon yasayman, - qo‘sildi novcha Davron.

Ikkalasi yuzida holi bor semizroq Ravshanga termulishdi. U ko‘zlarini o‘nggachapga yogurtirib yelkasini qisdi.

Uchta botir omborxonaga o‘tishib, pashshalar o‘rab olgan sariq lampochkaning nuri ostida taqir-tuqur qilib qurollar yasashni boshlashdi: Bobur terakning yo‘g‘on shoxinini qilich ko‘rishinishga keltirish uchun sabzi archiganday archirdi; Davron somonning ipini kamonga tarang tortadi; Ravshan pismayib o‘tirgani bilan, u eng hafvli qurolni yaratayotgandi, ichi bo‘s sh ruchkaning idishini uchini olovda eritib kichik mix

uladi, orqa qismiga to'rtta gururtning orasidagi qog'ozli qanotni suqib, kashfiyotiga termulgan holda o'midan turdi. Davron unga termulib tarangroq tortaverGANidan kamoni qars etib sinib ketdi. Bobur «Vuy» deb hayron bo'lib Ravshanning qo'lidan nayzani oldi-da taxta ustunga otdi. Bolalik davri har narsadan bir o'yin topishga chorlaydi. Ustun chiyish o'yini yangiligi uchun u o'zgacha ta'asurotlar bag'ishlardi.

\*\*\*

Qishloq yigitlari yoz chillasida jazirama issiqdan muzdek soyda qutqarilishardi. Tug'ilganidan shu soyda cho'milib kelganlarga suv tozami yoki loyqami qiziq emas.

Bobur askarlari bilan traktorming katta balonini dumalatib soya qarab ketayotgandi. Qirg'oqqa kelib qolganlarida ularga yoshi katta yigitlar:

- Uka, baloningni bitta ko'raychi! - Deb balonini olib qo'yishmoqchi bo'lishdi.
- Qochdik, qochdik! - Davron do'stalarini shoshiltirdi.
- E, uka to'xtab turgin... - yaqinlashardi katta yigitlar.

Davron balonni soy tomon qattiq dumalatib, tezda yugurib uni mindi. Boburning ortidan kelayotgan Ravshan qirg'oqdan uzoqlashishni boshlagan qayiqqa so'nggi onlarda ulgurib qoldi. Uzoqda qolib ketgan yigitlarga Davron tilini chiqarib ermakladi.

Balonning muvozanatini saqlash uchun uchalasi teng uch qismiga o'tirishdi.

Oqim ularni o'rdaklar to'dasiga olib keldi. Sal nariroqda esa to'da bo'lib endi suvgaga tushishayotgan g'ozlarning biri «qiy-qiy» qilib «senlar nimaga bizning muhitga kirishga jur'at etding?» degandek yaqinlasha boshladi. Davronning g'ozga otgan shippagi uni to'xtatmadi. G'oz tumshug'i bilan hujum qilgan zahoti Bobur dushmanning kallasiga taxta qilichi bilan zarba berdi. U boshini silkitdi-da, so'ngra qattiq tovush bilan «qar-qar» qilishi bilanoq qolgan g'ozlar ham yordamga yaqinlasha boshlashdi. Ozchilikdagil bolalar qo'rqqanidan qayiqni suzishini tezlatishga harakat qilishdi. Bor kuchlari bilan qo'chishga urinishgan sari, g'ozlar xuddi yanada yaqinlashib borayotgandek tuyilardi. To'da yana ozgina ergashib g'udiranib qolib ketdi.

Bolalar voqeadan miriqib kulishib tinchlanishganidan so'ng, oqim ularni qishloqdan anchagina uzoqqa olib ketganini anglab yetishdi. Atrofdagi manzara umuman notanish ko'rindi. Ravshan doimgidek birinchilardan bo'lib xavotirlanishni boshladi. Davron esa doimgidek Ravshanni qo'rqtishga urindi:

- Ilon!
- Ilon so'zini eshitishi bilanoq Ravshan:
- Qani? Qani? - deya tipirchilashni boshladi.
- Ana, ana! - davom etaverdi Davron. – Ana, chap oyog'ingda.

Ravshan chap oyog'ini tez ko'tarib yuborganidan qayiqdagi og'irlik bir tomonga og'ib, muvozanat buzilganidan balon ag'darilib ketdi. Bobur o'zini yo'qotmay balonni quchoqlab Davronga qo'l cho'zdi. Ravshanni ahtardi. U yo'q. Hech bo'limganda suv ustida boshi ham ko'rinnmaydi. Ustiga-ustak fofja oqim tezlashib qolgan joyda ro'y berdi. «Ravsha-an» deb baqirdi Davron va bexosdan yig'lab yubordi. U do'stiga qilgan ermaki sabab hozirgi hodisa kelib chiqqanida o'zini aybdor his qildi. Axmoqona hazili ayriliqqa olib kelgani endi ta'sir qildi.

Biz uchun qadrli bo'lgan insonlarning diliqa ozor berishga majbur qiladigan narsa nima? Nega biz, biz uchun qadrli bo'lgan insonlarni qadrllilagini ularni yo'qotish ehtimoli

paydo bo'lganda, balki yo'qotib bo'lganimizda anglab yetamiz? Nечун уларни бoshidan boshlab qadrlab, boshidanoq hurmat va mehr bilan munosabatda bo'la olmaymiz?

Ravshan suzishni bilmasdi. U soyning tubigacha cho'kib, yerni bosayotganini anglaganda yuragini qo'rquv o'rab oldi. O'pkasidagi havosini chiqarmaslik uchun og'zini ishirib, bolakay hayot uchun kurashishni boshladi. Oyoq-qo'llarini harakatga keltirishga uringanda chap oyog'iga bir narsa ilashdi. Silliq narsa oyog'ini o'rab olayotgandek tuyildi. Suv loyqaligi sabab pastga qarab hech narsa ko'rmadi, lekin hissiyotlari xuddi ilon uning oyog'iga o'ralashib chiqayotganday edi. Davron o'zining hazillari bilan bechoraning yuragini tushurib bo'lgandi. Ravshan qo'rqqanidan baqirib yubordi. Kichik-kichik havo pufakchalari balandga ko'tarilishni boshladi. U oyo'g'ini silkitgani sari ilon uning oyog'ini yanada qattiqroq qisaverardi. Bir oyog'ini ikkinchisini yordamida ozod qilishga uringanda unisi ham kishanga tushdi. Bolakay qo'llarini pastga uzatib kishanni yechishga urindi. Kuchi yetmadi. Achchig'idan baqirib, yana bir tipirchiladi. Uning ham foydasi bo'lmasdi. Katta-katta havo pufaklari balandga qarab ko'tarildi. Bolakay ham ularning ortidan intildi, ammo har bir harakat uning kuchini olardi, har bir soniya uni holsizlantirib boraverardi. Biroq bolakay taslim bo'lishga shoshilmasdi. U bor kuchi bilan qotib qolgan oyoqlarini qimirlatishga harakat qildi.

Odam o'z hayotiga xavf yetish ehtimolini sezganida, o'limga bir qadam qolganini anglaganida uning ichidagi bilinmas kuch uyg'onar ekan. Aynan shu daqiqalarda odamda uning o'zi ham tasavvur qila olmaydigan darajadagi kuch paydo bo'ladi. Bu kuch har narsaga qodirdir, faqatgina o'limdan qutqarib qolsagina bas. Ravshanda ham ana shunday kuch uyg'ondi. Odatda, nimjon bo'lib yuradigan bolakay vaziyatni qay darajada xavfliligini anglab, kuch bilan bir oyog'ini kishandan ozod qildi. Bu harakati muvaffaqiyatli bo'lgani uchun o'ziga ishonchi qaytdi. Endi holi bo'lgan bir oyog'ida yerni bosib ikkinchisini tortdi. Ko'p urindi. So'nggisida ko'z oldida qorong'ulikni sezishni boshladi. Keyin esa sustlashishni.

Bolakayning ruhi ozodlikka intilishdan to'xtamasdi, lekin uning tanasi bu kurashga oxirgi kuchlarini sarflab bo'lgandi. Harakatlari to'xtadi, ko'zlarini deyarli yumilib qoldi, chap qo'li esa najot bilan tepaga intilib turardi, xuddi bir tepadan mo'jiza kutgandek. Xuddi bir sehrgar uni qo'lini ushlab tepaga olib chiqib ketadigandek. Bolakay so'nggi marotaba ko'zini ochib, kallasini balandga ko'tardi va qorong'uda yoruqlik ko'rdi. U kelishiga ishongan sehrgar uni qo'lini ushlab tepaga tortdi.

Qo'y haydar o'tib ketayotgan Yodgor soydag'i tanish qiyofalarning baqiriga ikkilanmay suvg'a sho'ng'ib Ravshanni qutqarib chiqdi. Quruqlikka qadam bosgach uni yerga yotqizishni o'rniga Ravshanni gavdasidan kuchoqlab ikkala qo'li bilan tez va qattiq qisdi. Buni uch-to'rt marotaba takrorlagandan kegin Ravshanning og'zidan suv chiqib, Bolakay xushiga kelib yerga quladi. U ustidan do'stlari bir nimalar deb g'uldirayotganiga e'tibor bermay ko'm-ko'k osmonga termulib yotardi. Yodgor uning oyog'iga ilashgan suv o'tini olib tashladi.

# *San Fransisko*

## III

– E, qutluq bo'lsin-ey! - Quchoqlashib salomlashdi Bobur bilan Nodir aka.

Nodir aka AQSHda o'n yildan ortiq istiqomat qilib keladi. Bu yillar mobaynida bala-chaqalik, uy-joylik bo'lib, yaxshi ishga o'mashib o'lgan. O'zga yurtga kelgan ilk oylarida Boburga uning katta yordami tekkan.

– Qutluq, rahmat. - Xursandchilik bilan javob berdi.

– Eson-omon bitirib oldingizmi?

– Bitirdim.

– Ha yaxshi. Kiraylik qani... - «Uzbekistan» nomli restoranga yo'l boshladi.

– Xush kelibsizlar! - ularni kutib oldi restoranning hushmuomala boshqaruvchisi.

– Singlim yaxshimisiz? Men onlayn buyurtma berib qo'ygandim. - deb o'z ID kartasini ko'rsatdi Nodir aka.

– Bir daqiqa! - kompyuterda tekshirdi. – Iltimos, ortimdan yuringlar. Ularni restorandagi an'anaviylikni saqlagan holda sholchalar to'shalgan so'riga olib bordi.

– Ovqat tayyor bo'lguncha choy-poy ichib turasizlarmi?

– Qora choy, - dedi yostig'ini piypalayotgan Nodir aka.

– Xo'p bo'ladi.

U gapiga Nodir aka «O'ni qarang» degandek qo'yishini ko'tarib qo'ydi. So'rini suyanchig'iga tirsagini qo'yib dedi:

– To'y qachon endi? - deb kului.

– E, qo'ysezcchi aka! Ohirgi paytda qaysi o'zbek bilan gaplashsam shuni so'raydi.

– O'zi shunaqa naql bor, uchta o'zbek uchrashsa faqat to'y haqida gaplashadi degan.

Ha, mayli. - Dedi yuzini artib. – O'ziz qandaysiz endi? Tinchmisiz?

U savolni berar o'zi esa atrofni ko'zdan kechirardi. Ko'p o'tmay ovqat ham keldi. Nodir aka dasturxonga yaqinroq o'tirib oshni boshlab berdi. Oshdan so'ng o'zbekona suhabatning mavridi keldi.

– O'qishlarni ham bitirib oldingiz. Endi rejalar qanaqa?

Bobur aytsammikin-aytmasammikin deb ikkilanib turib, oxiri dedi:

– Uyga bir borib kelsammikin deb o'ylab yurgandim.

– Uydagilarizi ko'rib kelganimi? - dedi Nodir aka Boburning gapini jiddiy qabul qilmasdan.

– Ha, - deb pastga qaradi va bir zumdan so'ng boshini ko'tarib, – balki borib bir ish boshlarman.

– Nimaga? Amerika bo'lmaydimi?

– Yo'q, endi...

– Ishga takliflar olgandirsiz?

– Ha, olganman.

– Unda nima muammo? Yoki uyingizda bir gap bo'ldimi? - so'radi yuzidagi tabassum yo'qolib.

- Yo‘q, uylar tinch, xudoga shukr.
- Unda tushuna olmayapman? - deb olib qochayotgan ko‘zlariga qarab uyga ketish istaginining ildizi qayerdan kelib chiqayotganining tagiga yetishga urinardi.
- Shu... - dedi Bobur va bir zumga fikridan qaytishni o‘yladi, ammo bu narsani ichida ortiqcha ushlab turgisi kelmay dedi:
- AQSHda olgan barcha bilimlarimni vatanim uchun ishlatishni, O‘zbekiston rivoji uchun o‘z hissamni qo‘sishimga vaqt kelmadimikin degan o‘y-fikrlar kechayu-kunduz meni tark etmay qo‘ydi.

Nodir aka Bobur bu gaplarini jiddiy gapiryaptimi deb unga ko‘z tashlab qo‘ydi. Yuzidagi tabassum umuman yo‘qoldi. Piyolani to‘ldirib, ichidagi choyni uzoq aylantirdi. Bu vaqt Boburni hayolidan «bekor aytdim o‘zi» degan fikr o‘tdi. Chunki bu haqqa qaysi vatandoshiga gapirgan bo‘lsa, ular AQSHda shuncha yurib, hammasini tashlab uyga ketib yuborishni eng ahmoqona qaror deb bilishardi. Nodir aka ham shu fikrdaligi sezildi. Nihoyat choydan bir xo‘plab, so‘z boshladi:

– Amerikada yashaganingiz sari vatanda ko‘rgan qiyinchiliklarni esingizdan chiqaraib yuborar ekansiz, - boshladi piyolani hoshiyasini silab, – Yillar o‘tgan sari faqatgina yaxshi xotiralar qolar ekan: buvingizning pishirgan kulchalari, do‘srlaringiz bilan koptok tepganlaringiz, falonchi joyda muzqaymoq yeganlaringiz. Biroq, afsus buvingizning kulcha pishirgani kuchi qolmagan, do‘srlaringizni koptok tepGANI vaqt yo‘q, ular oila, bola-chaqali bo‘lishgan, falonchi joydagi muzqaymoq esa buzilib o‘miga boshqa narsa ochilgan. Demoqchimanki, biz qumsagan vatan faqatgina xotiramizda qolarkan. - piyolani surib ko‘zini ko‘tardi.

– Bir akamiz bitta juda to‘g‘ri gap aytgandi: «Biz vatanga qaytishni xohlayabmiz deb o‘ylab, aslida yoshlikka qaytishni istaymiz ekan». Qarang, qanday nuqtasiga urgan. Uka, qo‘lingizga shunchaki AQSHning emas, dunyoning eng nufuzli universitetlarining birini diplomi bo‘lsa, xohlagan joyingizga ishga kirish imkoningiz bo‘lsa, maoshingiz ham menikidan ikki barobar ko‘p bo‘lganidan keyin, mazza qilib yashashni o‘ylamaysizmi...

Boshqaruvchi shoshib yugurgilab yurganiga ko‘zi tushib qolib dedi:

– Bu restoranning sayti bor. Bir hafta oldin qaysi kuni nechchida kelishimizni, nima ovqat yeyishimizni belgilagandim. Kecha elektron pochta orqali eslatma kelgan. Boya saytdagi QR ko‘dni ko‘rsatdim, qolganini o‘zingiz ko‘rdingiz. Mana servis, mana zamonaviy qulayliklar. Ana endi mana shu ishlash tizimini u yerda yaratishni tasavvur qilib ko‘ring. Odamlarimiz hali tayyor emas. G‘ami boshqa. Buni men siz o‘sgan shaxringiz misolida aytdim. Agar Toshkentga ko‘chib ishlar qilaman desangiz bir narsani bilib qo‘ying, hech qaysi sobiq sovet ittifoqining davlatlarida, poytaxt butun mamlakatning aksi emas, u yana bitta alohida davlat. Siz ukam, u yerda esingizni anglagan yoshingizda hali yashamangiz-da, shunga sa-al yoshlik qilyapsiz.

– Odamlarni dunyoqarashini o‘zgartirishga najot bordur.

Nodir aka, o‘yinchoqni ko‘rib qolgan yosh bola uni olib berasan deb uni mahkam ushlab olganday taslim bo‘lmayotgan Boburga bir muddat tikilib turdi, duo qilishib, tashqariga yetakladi. Nodir aka sigaretni chuqur tortib osmonga fudadi-da, o‘zini bolaligidan boshlab ketdi. U maktab davridan majburan paxtaga chiqqanlaridan to adolatsizliklarga chidolmay bir amallab AQSHga kelib olganigacha bosib o‘tgan uzun

yo'lini hikoya qildi. Bobur diqqat bilan tinglar, ichida gohi «qayerdan ham aytdim o'zi» der, gohi esa eshitgan voqealari uni o'yantirib qo'yari edi.

– ... hom hayollik qilmang, - dedi Nodir aka bir narsani qidirganday atrofga ko'z yogurtirib. – Musofirchilikda vatan tuyg'usi hammada bo'ladi, - yana ishlashni davom etar edi. – Ozgina chidash kerak, o'tib ketadi.

U yon atrofda ahlat paqir topolmay qo'lidagini restoranning oldidagi kichik tomorqadagi o'simliklar ichra uloqtirdi.

– Amerikada o'n yil yashab sigaretni qoldig'ini ahlat paqirga tashashga o'rGANmadim-u, siz bo'lsa butun boshli millatni fiklashini o'zgartirishni gapirasiz. - qax-qax kului. – Mayli, men ketay, kelin-oyingiz kutib qoldi. Ko'rganimdan hursandman. Keyingi ko'rishganimizda Tesladagi ofisingizni ko'rsatasiz.

Ular ko'rishgandek quchoqlashib xayrlashishdi. Nodir akaning moshinasida mexmonxonaga tashlab qo'yish taklifini rad etgan Bobur trolleybus bekatiga qarab ketayotganida, Nodir aka uni chaqirgandek bo'ldi. O'girilsa, u bir narsa demoqchi bo'lib turgan ekan:

– Odamlar yillab grin kartani qayta-qayta o'ynab Amerikani orzu qilishsa-yu, siz qaytib ketaman deysiz-a! - Kului u va qo'lini silkitib moshinasini yurgizdi.

Bobur uzuqolashayotgan mashinaga termulib turar edi. U barcha nasihatlarda jon borligini tushunib turardi-yu, lekin bir narsa yakuniga yetmagandek hissiyot uni tark etmasdi. Huddi bir savolga javob topilmagandek. Ammo savol nimadan iboratligini Bobur o'zi ham bilmasdi.

Yo'Ining narigi betidagi restoranning oyna ortidagi «Hammasini unutib «Country» musiqasini tingla»» degan neon yozuv Boburni o'ziga chaqirdi. Ichkariga kirib uzun bo'yli dumaloq sto'llarning biriga o'tirishiga, undan buyurtma olgani bezakli fartuk taqib olgan ofitsiant ayol kelishga ulgurdi. Boshini bir qashlab ichimlik buyurdi. Shu payt sahnaga kimdur taklif etilib barcha mijozlarning e'tiborini o'ziga tortdi.

– Barchaga salom. - dedi yoshi keksaroq kishi. – Mening ismim To'mas. Bugun bu yerga kelayotganimda piknikka chiqqan bir nechta bolalarni ko'rdim. Yoshligim esimga tushdi. - Qoshini bosh barmog'ida taradi.

– Oltimishinchchi yillar edi. Biz hali kichkina edik. Men, Morgan, Lukas va Jo'n. Har yakshanba to'rtta do'st Morganning uyidagi garajda to'planar edik. O'yin-kulgu. Ba'zi paytlari tushlikka Peggy xola olmali pirog qilib berar edi.

Tomas o'sha paytdagi takrorlanmas ta'mni eslab og'zini burchagida jilmaydi.

– Oddiy kunlarning birida doimgidek inimizga to'plandik. Lukasning velosipedi teshilib qolib, g'ildirakni yamash bilan ovora edik. Uni bir amallab yamagach, Morgan: «kim sharbat ichadi?» dedi va shu zahoti uchalamiz ham «Men» deb baqirdik. Muzdek apelsin sharbatini ichib bo'lgach, Lukas:

– Bugun toqqa chiqaylik! - dedi.

– Bugunmi? - so'radim men.

– Ha, hoziroq! Osmonda bironta ham bulut ko'rinnmayapti, bugun havo yaxshi bo'ladi.

Jo'nga qarab u ham mijg'ovlaniyotganini ko'rdim.

– Kelishdik! - dedi Morgan yelkamga urib. – Bugun, toqqa chiqamiz!

– Bizga zudlik bilan reja kerak! - deb estafetani davom ettirdi Lukas. – Men pishloqli sendvichlar qilib kelaman, To'mas ichimlik suvi oladi, Jo'n, sen Margaret xola qiladigan qiyomdan ol, Morgan esa...

– Men sharbatdan yana tayyorlab chiqaman!

– Juda zo'r! Yigirma daqiqadan keyin fontanning oldida uchrashamiz! Olg'a! - dedi Lukas.

Kelishilgan vaqtida, kelishilgan joyda bir to'da bo'lib to'planib toqqa qarab yo'l oldik. U joy uyimizdan uzoqda edi. Kelgach, kichkina matoni o't ustiga yozdik. Olib kelgan narsalarimizni ustiga yoyib: birinchi tamaddi qildik, keyin esa qo'zigorin izlashga o'tdik, badminton o'ynadik va yana hokazo. Kun quyoshli, qalblarimiz beg'ubor edi. Qornimiz ochdi. Atrofdan o'tin axtarib kelgach, olovni yoqdik. Cho'plarni sosiskalarga sanchib o'tda pishirishni bo'shladik. Negadir hammaiz jim bo'lib qoldik. Bilmadim, bu nimadan bo'lgandi, charchaganmidik yoki gapiradigan hamma gapni gapirib bo'lganmidik. Bilmadim, - deya Tomas keksalarga hos uslubda lablarini chekasini artdi.

– Bugungi kun yaxshi o'tdi, a... - Dedi xushchaqchaq chehrasi so'nib bo'rayotgan Lukas.

– Ha bugun yodda qolarli kun bo'ldi. Tez-tez shunaqa sayrlarga chiqib tursak bo'lar ekan, - dedim men.

– Haa... - xafa javoblar keldi qolganlardan.

Lukas o'midan tezda sakrab turdi. Biz uning bir yeriga olov tegib ketdimikan deb qo'rqib, «nima bo'ldi?», «hech narsa qilmadimi?» deb, bunday vaziyatda hayolga birinchi bo'lib keladigan savollar bilan tashlandik.

– Kelinglar o'n yildan keyin ham shu yerda uchrashamiz! - dedi u.

Biz o'sha zahoti to'xtab qo'ldik. Bir-birimizga qarab yelkamizni qisdik.

– Kelinglar, yana o'n yildan keyin shu yerda yana uchrashamiz! - qaytardi u. – Yana o'n yildan keyin, shu o'rmonda, to'rtalamiz: men, Morgan, Bob va Jo'n! Nima deysizlar?

Bizning yuzimizda yengil tabassum paydo bo'lishni boshladи, ammo hamon oramizza tushunmovchilik bor edi. Buni sezgan Lukas, bizga o'ylashga vaqt bermasdan:

– Yana o'n yildan keyin! Aynan shu yerda! Shu toshni oldida! Faqatgina biz! Nima bo'lgan taqdirda ham! - deb qo'lini o'rtaga cho'zdi.

So'ng birin-ketin hammamiz kaftlarimizni usti-ustiga qo'ydik-da, har birimiz nima bo'lgan taqdirda ham, o'n yildan keyin, yana shu yerga kelishga va'da berdik. O'sha kunni yanada abadiylashtirish uchun toshga ismlarimizni o'yib ham qo'ydik.

Sahnadagi To'mas olis bolaligiga sayridan qaytgandek ko'zini yumib boshini pastga egdi.

– Bilasizlarmi, u kunda qandaydur mo'jizaviy narsa bor edi, - labini ishqalab davom ettirdi, – borgan joyimizda, yegan sendvichlarimizda, umuman toqqa sayrga chiqish g'oyasi to'satdan paydo bo'lganida. O'n yil o'tdi, o'sha kun keldi. - Jilmayib boshini ko'tardi. – Ozgina xavotirda ko'chaga chiqqan men, borish bormasligim haqqa ikkilandim, keyin irodamni to'plab o'sha toqqa qarab yo'l oldim. Borganimda hali ham nimadandir cho'chib turgandim. Yoqamni ko'tarib olib, haligi joy tomonga yurdim. Yetmasdan bir daraxt ortiga berkinib, kuzata boshladim. O'n daqiqa kutdim, o'ttiz, bir soat, ikki va bilasizlarmi keyin nima bo'ldi? - Tomoshabinlar ko'zlarini tap tortmay

kuzatishar edi. – Hech kim kelmadi. Hech kim. Birontasi ham. Bilasizlarmi eng qizig'i nima? Yillar o'tib, ko'chada to'satdan duch kelib qolib, «bir vaqt topib uchrashib tushlik qilishimiz kerak» dedik-ku, ammo bu narsa hech qashon amalga oshmasligini tushunsak ham, telefon raqamimizni so'rab, uni olgach: «aloqada bo'lib tur» deya u raqamni ataylayin saqlamadik. Bir gal esa, yuzma-yuz duch kelib qolmaslik uchun, men o'zim, - ko'ksiga duk-duk urdi, – yo'lning narigi betiga o'tib oldim.

Tomas sahnani tark etayotganda qarshisidan kelayotgan ashulachiga mikrofonni topshirib, tomoshabinlar ichida o'tirgan sheriklarining «bu yerdamiz» deb qo'l ko'tarishiga shunchaki qarab qo'yib, boshqa tarafga ketdi.

Sahnadan gitara tovushlari tarqaldi. G'amgin kuy To'masning gaplarida o'z aksini ko'rganlarni yuraklarini battar ezardi. Otlar poygasini berilib muhokama qilayotganlar endi qadahlarini mayin ko'tarib o'tmisht xotiralarida bir nimalarni qidirishardi. Hikoyadan kelib chiqqan xulosani yolg'on deb topmoq istagida Bobur, bir kun avval sinfdoshlariga, o'quv markazlarida birga chet tili o'rgangan gruppadoshlariga, sotsial tarmoq orqali yuborgan xatlariga kelgan javoblarni tekshirishni boshladi.

Agarda yaqinlaringiz, do'stлaringiz yoki shunchaki tanishlaringiz bilan uzoq vaqtdan beri habarlashmagan, aloqani ushlab turmagan bo'lsangiz orangizda jarlik paydo bo'ladi. Vaqt o'tgan sari u yanada chuqurlashib boraveradi. O'sha jarlik aslida noqulaylik, noaniqlik, uyat, balki g'ururdir va uni oqlab o'tgani katta mardlik talab qilinadi. Savol shundaki: o'z g'ururini yengib, birinchi qadam bosgan inson oldingidaqa munosabat bilan taqdirlanadimi? Boshqacha qilib aytganda, qirg'oqning narigi betida bizni qanday kutib olishadi?

Bobur javoblar sonini ko'rib juda xursand bo'ldi. Ulami ketma-ket o'qib, keyinroq shunga amin bo'ldiki, aslida hamma ham javob qaytarmagan ekan. Achinishga shoshilmasdan «balki biror joyida noto'g'ri gap yozib qo'ydimmikin» degan fikrda jo'natgan maktublarini tekshirishga o'tdi. Qarasa-ki hammasi joyida, xato yoki qo'pol gap yo'q. Bir chekkadan dialoglarini tekshirayotganida keyingi yoriqnomaga duch keldi:

«Kechirasiz, siz ushbu foydalanuvchiga maktub yubora olmaysiz, chunki u sizni qora ro'yhatga kiritib qo'yan!».

Ko'rgani chaqmoq chaqqandek ta'sir qilib o'ychan nigoh bilan yoriqnomaga termulib qotib qoldi. Qachonlardir yaqin do'sti deb hisoblagan insondan bunday munosabatini sira kutmagandi, chunki aynan shu do'sti bilan, yuz yildan keyin ham uchrashsa ularning munosabatlari oldingidaqa beg'ubor, eski damlarni eslab, faqatgina ikkalasi biladigan va boshidan o'tkazgan voqealarni ustidan miriqib kulishamiz deb umid qilardi.

Atrofdagi tovushlar Boburning qulog'iga g'uldirab kirar, avvallari o'ylamagan va tan olmagan narsadan hayratlanib, ichgi monologiga cho'mdi:

«Bolaligimda yoshi katta akalar o'zaro o'qibat haqida ko'p gaplashishardi. U armonli suhbatlarni mohiyatini endi tushundim. Biz o'zi nimadan qo'rquamiz ekan? Balki eski, yoshlikdagi laqablarni eshitishni xohlasmikanmiz? Yo'q... Buning sababi chuqurroq ko'milgan. Maktab davrida barchamiz katta maqsadlarni ovoza qillardik: shifokor, arxitektor, biznesmen. Katta bo'ldik ham. Hayot barchamizga o'z yo'limizni aniq ko'rsatib berdi. Kimlardir maqsadiga erishdi, kimlardir erishaolmadidi va ana o'sha maqtanishga arzigelik natijalarga erishaolmaganlik, ma'lum bir yoshgacha ish-joylik

bo'la olmaganlik do'stlarga qo'shilishdan tortinishni sababchisidir. Menga «qalaysan» deb yozish oson. Chunki Amerikaga keldim. Hayotimdan g'ururlana olaman. Ha... Kecha ayimlarining ijtimoiy sahifadagi yozganlariga, joylagan suratlariga qarab saviyasi ham, ongi ham o'sha-o'sha bo'lib qolganiga amin bo'ldim-u, negadir ajablanmadim. Xuddi ularni dunyoqarashini o'sha darajada qolib ketishini avvaldan bilganimdek. Balki o'sha, noqulaylikka sabab bo'layotgan o'zini baland tutish fazilati menda ham paydo bo'lgandir... Nachora... Biz katta bo'lyapmiz. Oldinlari miriqib kuladigan hazillarimiz endilikda tabassum ham uyg'otmaydi, kechagina do'stim deb yurgan insonlarimiz esa bugun bizga begona».

Bobur daryo bo'yida fikr hayoli ichida turardi. Uzoqdagi osmono'par binolarning sariq chiroqlari, sohilning bo'yidagi ogohlantiruvchi qizil chiroqlar, turli hil brendlarning neo'n chiroqlaridan sochilaryotgan nurlarning suvdagi aksi go'yo oqib ketayotgan bo'yoqlardek ko'rinar, suzib turgan kamalakni taqdir charxpalagiga o'xshatardi. Och ranglardan to'q ranglarga almashadi va teskari. Ayrim joylarda och ranglar ko'proq va uzunroq edi. Bu kesimni Bobur AQSHga kelgan birinchi oylari bilan solishtirdi. Unda chet davlatdagi hayot juda yorqin tuyilardi. Keyin esa to'q ranglar aralashdi. Bora-bora tiniq ko'rsatib turgan televizor jivirlab ketdi. Javobi yo'q savollar ichra fikri undan bunga sakrab, bir Nodir akasining tanish-bilishsiz hech qanday biznes qilolmaysiz degan nasihatlarini eslar, bir tashqi vaziyatlarga qaramay vatanida o'z o'mini topishiga ishongisi kelardi.

«Hozir tavakkal qiladigan sharoitda emasman» deb o'ylab yakuniy qarorga keldi u va Federko'ga «Men jamoadaman!» deb xabar jo'natib yubordi.

Qisqartirilgan variantning birinchi qismi tugadi.

*QR-ko'd orqali yozuvchini sotsial tarmoqlarda kuzating:  
Telegram, Instagram, Youtube*

